

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022


2022

УЧЕНЫЙ — ТОТ, КТО
МНОГО ЗНАЕТ ИЗ КНИГ;

ОБРАЗОВАННЫЙ — ТОТ, КТО
УСВОИЛ СЕБЕ ВСЕ САМЫЕ
РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ЕГО
ВРЕМЯ ЗНАНИЯ И ПРИЕМЫ;

ПРОСВЕЩЕННЫЙ — ТОТ, КТО
ПОНИМАЕТ Смысл Своей Жизни.

LEV TOLSTOY
(1828-1910)



OKTYABR
№ 45



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 45-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 64 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Qurbanova Durdona

ТА’ЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЈЛАНТИРИШ БО‘YИЧА БИР СТРАТЕГИЯ ВА УНИ
МУВОФИQLASHTIRISH 8

**2. Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi, Quvondiqova Fero’za Muzaffar qizi,
Bekniyozova Shaxodat Shavkatovna**

ИНКЛУЗИВ ТА’ЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА АКТ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ
ИСТИQBOLLARI 9

3. Balmanova Nargiza Quchqarovna

О’кувчиларни тарбиялашда касбга oid тушunchalarni singdirish 11

4. Laylo Soliyeva

YANGILANAYOTGAN О’ZBEKİSTONDA YANGILANAYOTGAN KASABA
UYUSHMALARI FAOLIYATI 13

5. Тошматов Алимардон Сотволдиевич

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЧЕТ ТИЛЛАР ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЁЗУВ
КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПСИХОЛИНГВИСТИК
АСОСЛАРИ 15

6. Ibodullayeva Barno Abdullayevna

NUTQ О`STIRISH MASHG`ULOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING
O`RNI VA AHAMIYATI 17

7. Musurmonqulova Jamila Xolmo’min qizi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI МАТЕМАТИК TASAVVURLARINI
SHAKLLANTIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI 19

8. Nomozova Nargiza Fayzullayevna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA
DIDAKTIK O`YINLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI 21

9. Рафикова Рената Анатольевна

ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПАМЯТЬ ЧЕ-
ЛОВЕКА 23

10. Тошматов Алимардон Сотволдиевич

БЎЛАЖАК ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЁЗУВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКО-
МИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ 25

11. Akramova Munojat

ONA TILI MILLATNING BIRLIGI VA BIRDAMLIGINING TIMSOLIDIR 27

12. Danaeva Gulnora Xursandovna

O`QUVCHILARDA KITO BXONLIK VOSITASIDA BADIY ADABIYOT
NAMUNALARIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO`NALISHLARI 29

13. Kurbonova Zulfiya Mirshaxidovna

BOSHLANG`ICH TA’LIM FANLARINI O`QITISHDA ILG`OR PEDAGOGIK
TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH 31

14. Nazrullayeva Gavhar Temurovna

O`QUVCHILARNI TASVIRIY FAOLIYATGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA
BOSHLANG`ICH SINF O`QITUVCHISINING METODIKASI 33

15. Tangirov Xurram Ergashevich

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI BO‘YICHA ELEKTRON
O`QUV QO`LLANMALAR YARATISH TEXNOLOGIYASI 35

16. Turdibayeva Soxiba Rashidovna

BOSHLANG`ICH SINF TABIY FAN DARSLARIDA OG`ZAKI O`QITISH
METODLARI 37

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

17. Xolmatova Mashhura Rustamovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	39
18. Yusupboyeva Mohira Faxriddin qizi BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA MATN TUZISHDA REJA TUZA OLISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	41
19. Абдурахмонова Хуршида Суннатовна ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАСОФАДАН ЎҚИТИШНИНГ УСТУВОРЛИГИ.....	43
20. М.И.Ахмедова БЎЛАЖАК ГИГИЕНИСТ-ЭПИДЕМИОЛОГ ТАЛАБАЛАРНИНГ ЧЕТ ТИЛДА КАСБИЙ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЛИНГВОДИ- ДАКТИК АСОСЛАРИ	45
21. Баймуродова Махлиё Хамидуллаевна МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ МУХИМ БИР ВОСИ- ТАСИДИР	48
22. Карабекова Насиба Ибодуллаевна ҲАМШИРАЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	49
23. Каримов Жамолиддин Абдухалилович КИТОБХОНЛИК ИНСОННИ МАЊНАВИЙ БОЙИТИБ, УНИ МАЃРИФИЙ КАМОЛОТ САРИ ЕТАКЛАЙДИ	51
24. Кодирова Муборак Нажмиддиновна ЎСПИРИНЛИК ДАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ	53
25. Нуруллаева Сурайё Камол кизи АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЎҚИТИШ САМАРАДОРЛИ- ГИНИ ОШИРИШДА КОМПЬЮТЕР ЎРГАТУВЧИ ТИЗИМЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК- ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ	55
26. Булычёва М.Ф. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗ- НЫХ ЭТАПАХ ЗАНЯТИЯ	57
27. Туропова Манзура Эрдоновна ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАР ВА ЎҚИТИШНИНГ ТЕХНИК ВО- СИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	61
28. Яхшиликова Нилуфар Гайбуллаевна “КАСБИЙ БИЛИМЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА МУСТАҲКАМЛАШДА УЧ ДАРАЖА- ЛИ ТЕСТЛАРНИНГ ЎРНИ”	62



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA BIR STRATEGIYA VA UNI MUVOFIQLASHTIRISH.

Qurbanova Durdona

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani

15- umumta'lif mактабининг

10-sinfida tahsil oluvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lif tizimini rivojlanish uchun alohida strategiya va uni raqamli texnologiyalarni keng tarzda qo'llash orqali muvofiqlashtirish to'g'risida savollar tahlil qilingan. Mazkur mavzuni yanada oydinlashtirish uchun quyida yorqin misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, ta'lif, rivojlanish, texnologiya, yoshlar.

Ta'lif tizimini butun dunyoda rivojlanish uchun birinchi navbatda iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarga ega va shu unsurlarni mustahkamlash uchun kelajak mevalari ham yaxshi pishgan bo'lishi kerak deb hisoblayman. Yetuklik tug'ilmaydi, ammo kundan- kunga inson shaxsiyatida takomillashib boradi¹. Yevropa davlatlari qatorida Osiyo davlatlarida ham texnologiya tizimi bilan o'qish yo'lga qo'yilsa, maqsadga shak emas. Masalan, O'zbekiston davlatini oladigan bo'lsak, ushbu davlatda daftар va ruchkalardan uzoqlashish lozim. Shunday davlatlar borki, kundalik ham, ruchka ham, daftар ham komputerda va ommaviy axborot vositalari bilan, ayniqsa, bog'liq. Shunday bo'lsa, kelajak yoshlarni bundanda o'sib, taraqqiyot ko'rsatishi jadallahshadi, nazarimda. Chekka qishloqlarda istiqomad qiluvchi bir guruh yoshlar bugungi bo'layotgan inovatsiya, islohot, takomillashuvlardan bexabar qolyapti bu esa qoniqarsiz holat. Har bir maktabda komputer bilan ishlash yo'lga qo'yilsa, zamon talablariga binoan katta o'sish bo'ladi. Odamlarning ongi o'zgaradi. Nafaqat O'zbekiston yurtida, balki butun Osiyo mamlakatlari orasiga shu strategiya kirkizilsa, rivojlanishlar sezilarli darajada bilinadi. Ammo har bir narsaning ijobjiy va salbiy tomonlari bo'lganligi bois bu ko'rilibayotgan yangi islohotning ham salbiy tomoni, albatta, mavjud.

Negaki, sog'liq uchun zararli, aynan, ko'z a'zosining ko'rishini zaiflashtirishi, shubhasiz. Ammo hozirgi XXI asr taraqqiyotini hisobga oladigan bo'lsak, buning ham iloji, albatta, bor.

Yosh taraqqiyotchilar orasida qo'l savodi yo'qolib boradi. Xotira susayishi, balkim, noto'g'ri talqin qilinishlar boshlanishi ehtimollardan holi emas. Ushbu masalani hal qilish uchun hammasi miyyorida bo'lishi shart. Misol uchun har kuni aqlii texnikalardan foydalanish kerak emas. Kunora yoki ikki kunda bir butun darslar shular orqali bajarishsa, barcha xursand bo'ladi. Oq qog'oz tarmog'i ham yo'qolib ketmaydi.

Bolalar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o'quv tajribasi bilan o'rtoqlashadi, loyihamalar va ma'lum muammolarni hal qilish ustida birgalikda ishlaydi². Shunday ekan yoshlar ravnaq topish uchun ikkilanmasdan shu islohotni respublikamizda joriy qilsa karvonimizning mo'ljallagan manzilidan tashqari bo'lmaydi.

Xalq ta'lifi tizimini rivojlanish konsepsiysi doirasidagi vazifalar ijrosini ta'minlaydi³. Va ularni muvofiqlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lifi Vazirligining Ilmiy- Metodik “ jurnali
- 2- “ Xalq Ta'lifi Axborotnomasi “ jurnali

¹ Shavkat Mirziyoyev so'zi. (O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lifi Vazirligining Ilmiy- Metodik)

² “O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lifi Vazirligining Ilmiy -Metodik“ jurnali

³ “Xalq Ta'lifi Axborotnomasi“



INKLUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA AKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

**Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi¹,
Quvondiqova Fero'za Muzaffar qizi²,
Beknuyozova Shaxodat Shavkatovna²**

¹Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali
qoshidag akademik litsey xodimi
tel: +998(93) 375 – 42-15 e-mail:
abdusamatovashahodat@gmail.com,

²Muhammad al Xorazimiy nomidagi
TATU AKT sohasida KT fakulteti talabasi.
tel: +998 (91) 1891009; +998 (91) 4615485
e-mail: quvondiqovaferuza1@gmail.com,
beknuyozovashaxodat@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’limni tashkil etishning yana bir shakillaridan biri bo‘lgan inkluziv ta’limda AKT va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati keltirilgan

Kalit so’zlar: inkluziv ta’lim, axborot kamunikatsiya texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari

Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish inklyuziv ta’lim jarayoni deb ataladi. Ushbu guruhga mansub o’quvchilarga ta’lim berish pedagogdan alovida mahorat va ko’nikmalarni talab qiladi. Chet el tajribasi shuni ko’rsatadiki bolani inklyuzivi(nuqsoni yoki imkoniyati cheklanganlik darajasi) asosida ta’limni tashkil qilish samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Mamlakatimizda aholining inkluziv ta’limga ehtiyoji bo‘lgan qismini aniqlash va bu turdagi o’quvchilar bilan alovida shug’ullanish maqsadida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan bunga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- 2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inkluziv ta’limni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilgan.
- Belgilansinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko’rsatkichlar va tegishli davrga mo’ljallangan asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alovida “Yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.
- inkluziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirildi;
- inkluziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etildi;
- alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inkluziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijtimoiy muhit shakllantirildi va boshqalar.

Inklyuziv ta’limda AKT texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi haqida to’xtalishdan olin inkluziv atamasini o’ziga to’xtalsak. Inklyuziv (fransuzcha inclusif – shu jumladan, lotinchadan o‘z ichiga oladi – xulosa qilaman, o‘z ichiga oladi) yoki kiritilgan ta’lim – umumiy ta’lim (ommaviy) maktablarda alovida ehtiyojli bolalarni o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlataladigan atama.

Inklyuziv ta’lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barcha odamlarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan, lekin alovida ta’limga muhtoj bolalar uchun alovida sharoitlar yaratuvchi mafkuraga asoslanadi.

Inklyuziv ta’lim - bu umumiy ta’limni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, u barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta’lim olish imkoniyatini nazarda tutadi, bu alovida ehtiyojli bolalarning ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydi.

Inklyuziv ta’limda AKTning uchta asosiy roli mavjud :

- **kompensatsion** - an'anaviy ta’lim faoliyatini engillashtirish uchun texnik yordam: o’qish va yozish;
- **didaktik** - AKTdan umumiy foydalanish va shu bilan bog’liq holda ta’limga yondashuvlarni o’zgartirish jarayoni. Muvofiq o’quv muhitini yaratish uchun AKTdan didaktik vosita sifatida



foydalanish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud;

– **aloqa** - aloqa texnologiyalari uchun - ko'pincha qo'llab-quvvatlovchi muqobil aloqa tizimlaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Nogironligi bo'lgan va ushbu funksiyalarni bajarishga qodir bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun ishlataladigan AKT vositalarining asosiy turlari quyidagilardir:

– **standart texnologiyalar** - masalan, nogironlar uchun o'rnatilgan sozlamalarga ega kompyuterlar;

– **kirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar formatlari**, shuningdek, muqobil formatlar sifatida ham tanilgan - masalan, foydalanish mumkin bo'lgan HTML, DAISY tizimining gaplashuvchi kitoblari (Digital Accessibility Inform) tizimi - elektron foydalanish mumkin bo'lgan axborot tizimi); shuningdek, Brayl alifbosi kabi "Oddiyt texnologiyali" formatlar;

– **yordamchi texnologiyalar**: eshitish asboblari, ekranni o'qish moslamalari, mavjud klaviaturalar va boshqalar. Yordamchi texnologiyalar (AT) - "nogironligi bo'lgan odamlarning funktsional imkoniyatlarini yaxshilash, qo'llab-quvvatlash yoki yaxshilash uchun mo'ljallangan qurilmalar, mahsulotlar, uskunalar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlar".

Foydalanilgan adabiyotar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alovida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori

2. Avdeeva Yelena Anatolevna “Inklyuziv ta'lim va AKT” 24.10.2016

3. Rice, Donal “Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании ”



O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA KASBGA OID TUSHUNCHALARINI SINGDIRISH.

Balmanova Nargiza Quchqarovna
Yunusoobod tumani 150-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktabyoshidagi o'quvchilarda kasbga oid tushunchalarini singdirish haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbga oid tushunchalarini singdirishda fanlarga oid to'garaklar, moxir qo'llar, badiy xavaskorlik, sport musobaqalari, hamda kasbga yo'naltirishning usul va yo'llari to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: kasbga oid tushunchalarini singdirish, to'garaklar, bilim, ko'nigmalarini shakllantirish, qiziqish, texnologiya ta'limi, ijtimoiy-foydali, maktab, to'g'araklar, moxir qo'llar.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyada boshlang'ich sinflar ta'limi alohida bosqich bo'lib, bu davr bola shaxsini eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 7-10 yoshgacha bo'lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o'smirlilik davriga zamin yaratadi. Ayni shu davr bola shaxsining ko'rish, kuzatish, idrok etish, tassavur va tafakkur qilishga o'rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo'ladi.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga, uning sog'ligi, o'zlashtirishi va xissiyotlariga mos bo'lishi lozim. Ushbu sifatlar o'quvchining turli faoliyati davomida qaror topadi va namoyon bo'ladi.

O'quvchining kasb-hunarni notug'ri tanlashi esa katta moddiy, ma'naviy zarar yetkazadi. Basharti, o'smir o'z imkoniyatiga mos bo'limgan kasb tanlasa, u o'z ishini hech qachon kasb talab qilgandek bajara olmaydi.

Texnologiya ta'limi darslari kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. I-IV sinflarda texnologiya ta'limining asosiy maqsadlaridan biri - o'quvchilarda inson uchun texnologiya biringchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Shu boisdan ham texnologiya ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlardan ajratilgan.

Bolalarни kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'jal olishga o'rgatish zarur. Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqish ortadi.

Birinchi bosqich (I-IV sinflarning o'quvchilari bilan ishlash) - moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi - jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Texnologiya o'qituvchisi o'z ishida bilim va malakanasi egallashda o'quvchilarga eng ko'p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan ish shakillari va metodlaridan foydalanishi lozim. Laboratoriya-amaliy, o'quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, tajribasi shunday ish shakillari va metodlari jumlasiga kiradi. Bu ishlardan mustaqil kuzatishlar, tajribalar, taxlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni xal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o'z ichiga oladi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet faoliyati, sinf raxbarining, fan o'qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilalar bilan maxkam bog'langandir. Texnologiya o'qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog'lamay turib samarali ishlashni mumkin emas. Texnologiya ta'limi darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borgan o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ham hisobga olish lozim.

Kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish uchun: "Mehnat yo'lini tanlash", "Mening kasbim-eng yaxshi kasb" mavzusidagi kinofilmlar; reklama qilinadigan televizion filmlar, kasblar va musobaqa ilg'orlari to'g'risida radio eshittirishlar, yoshlarining o'qishi haqida xikoya qiluvchi rivoyatlar va ertaklar; shahar kinoteatrлari va ekskursiyalarga borishni yo'lda qo'yish.

Sinfdan tashqari ishda o'quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishda quyidagi tashqiliy



usullardan foydalanish mumkin: fanlarga oid to‘garaklar, moxir qo‘llar, badiy xavaskorlik, sport musobaqasi va xokozalar katta ahamiyatga ega.

To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan to‘garaklar o‘smir yoshlar uchun kasb tanlash masalasini haddan tashqari tashqari yengillashtiradi deb takidlagan edi N. K. Krupskaya.

-kasb tanlashga yo‘llash va kasbga oid ma’lumotlarni berib borish orqali ota-onalar bilan ishslashni tashqil etish bo‘yicha tadbirlarni muvofiqlashtirish.

-maxsus sinf mashg‘ulotlari, yig‘ilishlar, kechalar, kasblarni to‘g‘ri tanlashning ahamiyati haqida o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkaziш;

-anketalar tarqatish, kuzatish va shaxsiy suhbatlar o‘tkazish;

o‘quvchilarining qaysi kasbga mativi borligini aniqlash;

-o‘quvchilarni turli xil mehnat sohalari bilin tanishtirish;

-o‘quvchilar va ota-onalarga yakka holda maslahatlar tashqil etish va o‘tkazish;

-kasb tanlashga yo‘llashda ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, meditsina-fiziologik tomonini xisobga olish;

-o‘quvchilarni to‘garak yoki qo‘shimcha mashg‘ulotlarga, kasblar bo‘yicha o‘quvchilarni turli guruhlarga jalg qilish yo‘li bilan xar bir o‘quvchining qiziqish va mayllarini rivojlantirishga doir sinfdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishiga erishish.

Maktabda to‘garak ishini tashqil etishda to‘garak mashg‘ulotlariga o‘quvchilarni yalpi jalg etishgagina emas, avvalo, shu o‘quvchi nima uchun xuddi mana shu to‘garakda shug‘ullanishni hohlayotganligini, to‘garak turini tanlashda xatoga yo‘l qo‘ygan-ko‘ymaganini (aks holda, o‘quvchi katta ma’naviy zarar ko‘rishi mumkin) aniqlashga harakat qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yadgarova G.T. O‘kuvchilarni kasb-hunarga yunaltirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar. // Maktab va hayot, 2006.

2. Sharipov Sh., Shonazarov R. Kasb tanlashga yullah fanidan metodik qo‘llanma. - Toshkent, 2007.

3. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat ta’limidan amaliy ishlar” -TDPU 2007 yil



**YANGILANAYOTGAN O’ZBEKISTONDA YANGILANAYOTGAN KASABA
UYUSHMALARI FAOLIYATI**

Laylo Soliyeva

Navoiy viloyati G'ozg'on shahar ta'lif va fan xodimlar kasaba uyushma raisi

Annotatsiya: Ushbu mqlolada bugungi kunda kasaba uyushmalari hamda ularni yangilanayotgan faoliyatlar xususida fikr mulohazalar bildiriladi

Kalit so'zlar: AQSh, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi, «Kasaba uyushmalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi.

Kasaba uyushmalari - mehnatkashlarni jinsi, diniy e’tiqodi, irqiy va milliy mansubliklaridan qat’i nazar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va o‘z a’zolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida birlashtiruvchi ommaviy jamoat tashkilotlari.

XVIII asr oxirida G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda o‘zaro yordam jamiyatlar sifatida paydo bo‘lgan. Rivojlangan mamlakatlarda XIX asrda legallashdi. Kasaba uyushmasi xodimlarning mehnat sharoiti, ish haqi, turmush, madaniyat va h.k. sohalardagi manfaatlarini himoya qilishga da’vat etilgan. 14 yoshga to‘lgan va mehnat (kasb) faoliyati bilan shug‘ullanayotgan har bir kishi o‘z hohishiga ko‘ra, o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmasi tuzish, ularga kirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida ham kasaba uyushmalari keng ko‘lamli faoliyatni amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi eng yirik jamoat tashkilotlaridan biri sifatida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tarkibida 32,8 ming boshlang‘ich tashkilotlarni birlashtiruvchi 14 tarmoq kasaba uyushmalari mavjud. Kasaba uyushmalariga a’zolarning soni 5,5 millionda ortiq bo‘lib, ulardan 2,4 milliondan ziyodi ayollar va 1,8 millionga yaqini yoshlar hisoblanadi.

Chunonchi, 2016 — 2020-yillarda turli bo‘g‘indagi kasaba uyushmalari tashkilotlariga kelib tushgan 35 mingdan ortiq murojaat ko‘rib chiqilgan. Natijada ish beruvchilarga 2 ming 295 ta taqdimnomalar va sudga 765 ta da’vo arizasi kiritilgan, 13 ming 471 nafar xodimning mehnat huquqi tiklangan.

Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasi huzuridagi kotibiyat katta referenti Behzod Sultonovning yozishicha, mehnat, mehnatni muhofaza qilish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalaragi qonun hujjalari hamda munosabatlarning takomillashuvi – kasaba uyushmalari bilan bog‘liq qonun hujjalarni takomillashtirish zaruriyatini tug‘dirgan.

«Kasaba uyushmalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan kasaba uyushmalarini tashkil etish va ularning faoliyati, fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan. Qonun loyihasini ishlab chiqishda uchta asosiy manbaga, ya’ni milliy qonunchilik va amaliyotga, xorijiy davlatlar tajribasiga hamda sohaga doir xalqaro huquqiy hujjalarga tayanilgan.

Hozirda yurtimizda, hodimlar mehnatini muhofaza qilish maqsadida kasaba uyushmalari tomonidan 16 mingga yaqin korxona va tashkilotlar faoliyati o‘rganilib, aniqlangan 61 mingdan ziyod kamchiliklar bartaraf etilishi ta’minlandi.

Kasaba uyushmalari faoliyatiga katta e’tibor berilmoqdaki, Prezidentimiz, Sh. Mirziyoyev kasaba uyushmalari haqida quyidagi fikrlarni bildirganlari ham so‘zimizning isbotidir. “Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha ish beruvchilar va rahbarlar butun dunyoda tan olingan quyidagi qoidaga amal qilishlarini istardim: har qaysi korxona yoki tashkilotda albatta kasaba uyushmasi faoliyat ko‘rsatishi va rahbarlar albatta ular bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishi shart. Shundagina jamiyatimizda mehnat qonunchiligi buzilishi holatlarining oldi olinadi, hayotimizda ijtimoiy adolat yanada mustahkam qaror topadi”, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uning so‘zlariga ko‘ra, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta’minalash barcha sohalarda biz uchun bosh maqsadga aylanayotgan hozirgi paytda hayotning o‘zi kasaba uyushmalari oldiga ham ulkan vazifalarni qo‘ymoqda.



“O‘zining katta va boy tajriba maktabi, shonli an’analariga ega bo‘lgan mamlakatimiz kasaba uyushmalari ularni samarali hal etib, Yangi O‘zbekistonda yangicha mehnat munosabatlari shakllanishi va ravnaq topishiga munosib hissa qo‘sadi, deb ishonaman”, — deyiladi unda.

Bu yo‘lda ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasaba uyushmalarining fuqarolik jamiyatining eng faol institutlaridan biriga aylanishiga ko‘maklashish uchun bundan buyon ham bor imkoniyatlar safarbar etilishi qayd etilgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar, inson manfaatlarini ta’minlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar zamirida xalqimiz tur mush darajasini oshirish, odamlar ertaga emas, bugun yaxshi yashashini va farovonligini ta’minlash kabi ezgu maqsadlar mujassamdir. Bunda kasaba uyushmalari faoliyatining ham salmoqli hissasi bor. Kasaba uyushmasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunlari, Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining Ustavi va boshqa huquqiy hujjatlar asosida yuritadi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Przidenti Sh. Mirziyoyevning kasaba uyushmalari kuniga yo’llagan bayram maktubidan
2. <https://yuz.uz/uz/news/kasaba-uyushmasifarovonlikni-taminlash-pirovard-maqsad>
3. Gazeta.uz sayti



ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЧЕТ ТИЛЛАР ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ИНГЛИЗ
ТИЛИДА ЁЗУВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ
ПСИХОЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ

Тошматов Алимардон Сотвондиевич

Фарғона давлат университети

Тел. +998 93 681 41 14

Аннотация. Мазкремақолада сўз ёзув кўникмаларини ривожлатнириш хақида боради. Унда ёзувни зарурий даражада ривожланиши, яхши ўқиш кўникмаларининг ривожланганилигига асосланганлиги ва уларни тушуниш ва ёзма нутқда ифодалаш учун аввало сўзларни қандай бўёқдор тарзда ишлатилиши мумкинлиги хақида фикрлар берилган.

Калит сўзлар. График воситалар, техник жараён, материал, қўллаш, ёзиш, техникаси, фикр, чет тил, ёзма, баён, ёзма мулоқот.

Жаҳонда юз бераётган иқтисодий алоқаларнинг тобора интеграллашуви жараёни ўзбек ва чет тилларида ёзма нутқ малакаларини ривожлантириш методикасида ўз ифодасини топмоқда. Шу билан бирга, ракамли технологиялар асрида ижтимоий ва иқтисодий, маданиятларо мулоқот ва алоқалар соҳалардаги тараққиёт жараёни ўзбек тилининг лисоний манзарасида сезиларли даражада акс этмоқда. Илмий адабиётларда таъкидланганидек, ўзбек тилининг лексик-семантик тизимида уч йўналишда, яъни янги лексик бирликлар орқали ўзбек тили луғатининг бойиб бориши, актив ва пассив луғат заҳирасининг қайта шаклланиши ва луғат сатҳларининг кенгайиши, вербал белгиларнинг мазмун жиҳатидан ўзгариши каби йўналишларда содир бўлди. Бу каби ўзгаришлар лексикадан ташқари, фонетикада ҳам бальзи ўзбек тили талаффузи хусусиятларининг йўқолишида, миңтақавий ва ҳудудий хусусиятларнинг кенгайиши, ёзма нутқ шаклининг оғзаки нутққа актив таъсирида кўринмоқда. Шунингдек, синтаксисда оғзаки мулоқотда сўзлашув шаклларининг фаоллашуви, турли мулоқот воситаларининг оммалашувида ҳам намоён бўлмоқда.

Ёзувни ўргатишга доир рўйхатда қайд этилган терминларни методика нуқтai назаридан умумлаштириб таҳлил қилишни зарур деб топдик. Чет тилда ёзув деганда, ушбу тил воситалари қўлланиб, ёзма шаклда фикр баён этиш тушунилади.

Ёзма нутқда қўлланадиган лисоний воситаларни, биринчидан, графемалар ва ёзма шаклдаги лексик ва грамматик бирликлар ташкил эца, иккинчидан, уларнинг қўлланиши (ёзлиши) ёзма нутқнинг ёзиш техникаси саналади. Демак, график воситалар ва уларнинг техникавий жараёни ҳақида сўз юритилди. Материал ва уни қўллаш тушунилмоқда. Ёзиш техникасидан фойдаланиб, фикр чет тилда ёзма баён этилса, ёзма мулоқот юз беради.

Истифода этилган “Ёзувни ўргатиш” термини икки тушунчани ифодалайди, яъни (1) ёзиш техникасини ва (2) ёзма нутқни (фикри ёзма баён этишни) ўргатиш маъноларида келган. Ёзиш техникаси деганда, графика (товуш-ҳарф муносабати ва ҳарфнинг маъно билдириш вазифаси), каллиграфия (хусниҳат), орфография (имло) назарда тутилади. Ёзма нутқ термини эса график тарзда ифодаланган ахборот ва нутқ мулоқоти жараёни ма’ноларини камраб олади.

Ёзма нутқ кўникмалари асосан ўқувчиларга ёзувни ўргатишда ва ушбу кўникмалар ҳамда стратегияларни қўллаш имконияти берилганда ривожланади. Илмий кузатишларимиз ёзув кўникмаси синфда бироз эътибордан четда қолаётганлигини кўрсатди, аммо бу она тили ва чет тилда оғзаки ва ёзма нутқни ривожланиширишнинг муҳим қисмидир. Ёзув кўникмаларининг зарурий даражада ривожланиши, яхши ўқиш кўникмаларининг ривожланганилигига асосланади, уларни тушуниш ва ёзма нутқда ифодалаш учун аввало сўзларни қандай бўёқдор тарзда ишлатилиши мумкинлигини англаб олиш керак бўлади.

Кўп йиллар давомида ўқиш ва ёзма нутқ алоҳида ўргатилиб келинмоқда. Тил ўрганиш жараёнида бу кўникмалар деярли ҳар доим бир ўқитувчи томонидан ривожлантирилган бўлса-да, ўқитувчилар камдан-кам ҳолларда ўз талабалари учун икки кўникма ўртасидаги узвий алоқани тушунтириб ўтмайдилар. Сўнгти ўн йиллар давомида олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдиги, ўқиш ва ёзма нутқ кўникмалари биз ўйлагандан кўра кўпроқ ўзаро боғлиқдир. Улар ўртасидаги муносабат худдики жавобсиз бўлган “товук ва тухум” масаласига ўхшайди. Қайси бири биринчи бўлиб пайдо бўлганлиги унчалик муҳим эмас,



чунки бирисиз бошқаси мавжуд бўла олмайди. Боланинг саводхонлигини ривожлантириш ўқиш ва ёзув ўртасидаги ўзаро боғлиқликка таянади.

Асосан, ўқиш ёзма нутқнинг ривожланисига таъсир қилади ва ёзма нутқ ўқишга таъсир қилади. Тилшунос тадқиқодчиларнинг фикрига кўра, ўқиш бўйича кўрсатма, ёзув йўриқномаси билан ўзаро боғланганда самаралироқ бўлади ва аксинча. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, агар болалар кўп ўқиса, улар яхши ёзувчи бўлишади. Турли жанрларни ўқиш болаларга матн структуралари ва тилни ўрганишларига ёрдам беради, кейинчалик улар бу структуралардан ўз ёзма ишларида фойдаланишлари мумкин. Бундан ташқари, ўқиш ёшларга ўз ҳикояларини кашф қилишга доир билимларни ҳам беради. Ўқишнинг асосий мақсадларидан бири бу ўрганишдир. Айниқса, мактаб даврида ўрганганларимиз, билган нарсаларимиз ўқиган матнлардан келиб чиқади. Ёзув фикрни ёзма тарзда ифодалаш ҳаракати бўлганлиги сабабли ўқиш ёзувни ўрганишнинг ажralmas қисми ҳисобланади.

Шу билан бирга, ёзма машқ болаларга ўқиш кўнималарини ривожлантиришга ёрдам беради. Бу, айниқса, ёш болаларни фонематик онги ва фонетик кўнималарини ривожлантиришда самарали ҳисобланади. Фонемик онг (сўзларнинг товуш "бўлаклари" дан ишлаб чиқилганлигини тушуниш) болалар янги сўзларни ўқиш ва ёзиш жараёнида ривожлантиради. Худди шундай, болалар бир хил сўзларни ўқиш ва ёзишда фонетик кўнималари, сўзлардан жумла тузиш учун товушларни бир-бирига боғлаш қобилияти шаклланади. Каттароқ ёшдаги ўқувчилар ўз матнларини ёзишни машқ қилиш жараёнида ўқилган матнларни таҳлил қилишни ҳам ўрганадилар. Улар профессионал муаллиф матнларини яхширок тушунишлари учун маълум бир тил, матн тузиш ёки мазмунидан фойдаланиш усуслари ҳақида ўз билимларини қўллашлари мумкин.

Ўқиш ва ёзув ўзаро чамбарчас боғлиқ жараёнлар эканлигини билишнинг ўзи етарли эмас. Ўқувчиларга бу икки муҳим кўнималарни ривожлантиришга ёрдам бериш учун ўқитувчилар ота-оналар билан уй вазифаларини бажартириш бўйича ёрикномалар беришлари зарур. Саводхонликни ривожлантириш учун ўқиш ва ёзувдан фойдаланишнинг бир нечта стратегияларини ўргатиш тавсия этилади.

Бўлажак инглиз тили мутахассисларининг чет тилдаги ёзма нутқини ривожлантириш бўйича методик тавсиялар эса кейинги мақолаларимизда ҳавола этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ахмедова Л.Т Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Т.: Фан ва технология, 2009. – 160 с.
2. J.J.Jalolov / Chet til oqitish metodikasi // Chet tillar oliv o ‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik // „0‘qituvchi“ Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi, Toshkent – 2012. 284-285 betlar.
3. Abdul Hameed Abdul Majid / The Use of First Language in Developing Ideas in Second Language Writing // American Journal of Social Issues & Humanities / pp. 148-151 May 2012. Available online <http://www.ajsih.org>
4. Stapa S.H. / The process approach in ESL writing // Bangi: Faculty of Language Studies. 1998.
5. J. Piaget / The Language and the Thought of the Child // New York. 1965.
6. L.S.Vygotsky / Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes // Great Britain. Harvard university press. 1978.



**NUTQ O`STIRISH MASHG`ULOTLARIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARING O`RNI VA AHAMIYATI**

Ibodullayeva Barno Abdullayevna
Surxondaryo v. Termiz tumani
18 -DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida nutq o`stirish mashg`ulotlarida innovatsion texnologiyalarining ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: mashg`ulot,nutq o`stirish,innovatsiya, maktabgacha yosh

Mustaqil O`zbekistonimizning ravnaqi bugungi yosh yangi avlodning har tomonlama to`laqonli, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko`p jihatdan bog`liqidir. Chunki davlat mustaqil fikrlaydigan, ruhi komil, dili pok insonlar tomonidan quriladi va mustahkamlanadi. Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlod uzlusiz ta`lim va tarbiyasining butun jarayonini qamrab oluvchi yagona ta`lim majmui hisoblanadi. Uning dastlabkisi – maktabgacha ta`lim bosqichidir.

«Ta`lim to`g`risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta`limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o`zi talab qilmoqda. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta`lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta`lim metodlarining paydo bo`lishi, ta`lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta`limni tashkil etishda tarbiyachi mahoratining noan'anaviy shakllari keng ko`lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Ushbu o`zgarishlarning ma'lum qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo`lsa, yana bir qismi dunyodagi ta`lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo`ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarining mamlakatimiz ta`lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo`nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta`limda ta`lim oluvchilarini faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zları qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarini ham o`zları keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Tarbiyachi bu jarayonda shaxsnинг rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan ta`lim jarayonida shaxs asosiy ishtirokchiga aylanadi.



Zamonaviy tarbiyachi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ`ibotchisidir. Zamonaviy tarbiyachi tomonidan o`quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida mashg`ulot mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o`quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, u bolaning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Ta`lim tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg`or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, mashg`ulot o`tishning interfaol usullari o`z-o`zidan ta`limga kirib kelmaydi. Demak tarbiyachidan bilim, ijodiy mexnat va kasb maxorati talab qilinadi. Chunki tarbiyachi faoliyati yangilanmasa ta`lim-tarbiyada samaradorlikka erishib bo`lmaydi.

Tarbiyachi tomonidan mashg`ulotlarda bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo`naltiruvchi ta`lim shakli, metod va vositalarining to`g`ri tanlanishi, tasviriy faoliyat mashg`ulotlarining qiziqarli, baxs-munozaralarga boy bo`lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turki beradi. Mana shu xolatdagina bolalar tashabbusni o`z qo`llariga oladilar, tarbiyachining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo`nalishga solib yuborish, umumiyligi faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo`l-yo`riq ko`rsatish, maslaxatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qo`yiladi.



Berilayotgan bilim oddiygina xotira yordamida emas balki, bolaning o’z fikrlash sa’yr-harakatlari bilan egallangandagina mustahkamlanadi. Bolaning erkin fikrlash, ayniqsa tasavvur etish, faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirish, ko’nikma va malakalarni vujudga keltirish muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir tarbiyachi o’z mashg’ulotlarida bolalarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Nutq o’stirish mashg’ulotlarini o’tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llashda, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishda yuqori natijalarga erishiladi.

Maktabgacha yoshdagibolalaruchun nutqo’stirish mashg’ulotlari innovatsion texnologiyalardan, faol o`qitish usullaridan, o’yinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

Ta’lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to’g’risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagи bolalar nutqini o’stirish metodikasi va amaliyotida o’zgarishlar bo’lishini taqozo etadi. Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagи bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqoriroq talablar qo’yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi.

Demak, nutq o’stirish mashg’ulotlari jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda, bolalarda bilim, aql, his-tuyg’u, iroda, ishonch, ong, tafakkur kabilarni shakllantirishda, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O’.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 206 b.
2. Fabermen L.B. Ilgor pedagogik texnologiyalar. GulDU. -1999. yil
3. Fayzullaeva M., Raximova Z., Rustamova M., Maktabgacha yoshdagи bolalarning nutqini o’stirish. (tayyorlov guruhi uchun mashg’ulotlar ishlanmasi). T., 2011 y.



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MATEMATIK TASAVVURLARINI
SHAKLLANTIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI**

Musurmonqulova Jamila Xolmo'min qizi
Surxondaryo v. Sherobod tumani 11 -DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'limg'uz, elementar matematika, rivojlanish, ta'limg'uz tarbiya

Maktabgacha ta'limg'uz yoshdagi bolalarni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta'limg'uz tarbiya tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, u bolani sihat-salomatlilikka, to'g'ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta'limg'uz tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limg'uzda jismoniy mashqlarning asosiy mazmuni badan tarbiya, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, sport mashqlari, oddiy turizmdir.. Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, o'yinlarni bajarganda 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chandalash, doira, aylana, to'g'ri chiziq, to'g'ri turish, uchburchak, to'rtburchak, kabi so'zlarni eshitadi va so'zlaydi, bu so'zlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlataladi. Demak, maktabgacha ta'limg'uz muassasalarida kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida o'rgatiladigan elementar matematika tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha na'munaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga o'rgatish jarayonini bilim va ko'nikmalarini samarali bo'lishini, bolalar ongida yanada mustahkam bo'lishini ta'minlashda, o'yinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni: son, sanoq, to'plam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik bo'lib, maktabgacha ta'limg'uzda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'limg'uz muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha umum metodik nazariy asoslari namunaviy dasturlari yaratilgan bo'lib, bu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, "teng", "katta", "kichik", "butun va bo'lak" kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chandalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi.

Bu yoshda aqliy qibiliyatni, mustaqil fikr yuritishni, analiz, sintez, taqqoslash kabi jihatlarini, muhokama qilish, xulosa chiqarish qibiliyatini, miqdorviy tasavvurni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tayyorlov guruhining elementar matematik tasavvurini rivojlantirish bo'yicha dasturi bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Maktabga tayyorlov guruhida matematika bo'yicha haftasiga 2 ta mashg'ulot, yil davomida 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20-25 daqiqa.

Har bir mashg'ulot tuzilishi uning mazmuni bilan aniqlanadi. U yangi materialni o'rganish, o'tilganlarni takrorlash va mustahkamlash, bolalarning egallagan bilimlarini tekshirishga xizmat qiladi. Tayyorlov guruhida o'tkaziladigan matematik mashg'ulotda didaktik ko'rsatma materiallaridan keng foydalaniishi xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko'rgazma tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar ham namuna sifatida qaralishi mumkin. Pedagog – tarbiyachi ularga o'zida bo'lgan ko'rsatma-qo'llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin.





Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limgandi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri—bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chiqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Matematik masalalarini yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi, matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada ota-onada bo'lsa, maktabgacha ta'limda albatta tarbiyachi-pedagog bo'ladi.

Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakillantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar, individual yondashish, mustaqil shig'ullanishga o'rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.U.Bekboeva, U.S.Aliyeva Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish bo'yicha ta'lim mazmuni. “Maktabgacha ta'lim ” jurnali №12, Toshkent 2000 y.
2. N.U.Bekboeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova “Maktabgacha yoshdagি bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.
3. M.E.Jumayev “Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi” Toshkent. Ilm ziyo. 2010 yil.



**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA
DIDAKTIK O`YINLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

Nomozova Nargiza Fayzullayevna
Surxondaryo viloyati Sherobod tumani
19-sonli Davlat Maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik o`yinlardan foydalanishning nazariy asoslari, tafakkur muammosi va uning yosh davrlarida rivojlanishi, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishda didaktik o`yin-mashg`ulotlarning o`rni yoritilgan.

Kalit so`zlar: Maktabgacha ta`lim, didaktik o`yinlar, mashg`ulot, tafakkur,bola shaxsi

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga binoan 2200 ta maktabgacha ta`lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta`lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o`quv-metodik qo`llanmalar, multimedia resurslari bilan ta`minlash ko`zda tutilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami **2.2 trillion** so`m mablag` ajratilishi,bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo`lgan **6100 ta** qisqa muddatli guruhni tashkil etishga,**3-6 yoshdagi** maktabgacha ta`lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo`llanmalar bilan ta`minlash orqali maktab ta`limiga tayyorlashni tashkil etishga,maktabgacha ta`lim muassasalarini tarmog`ini **50 ta** yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning **1167** tasini rekonstruksiya qilish va **983** tasini mukammal ta`mirlash orqali kengaytirishga,qishloq joylardagi maktabgacha ta`lim muassasalarida ota-onalar badal to`lovini **30 foizgacha** kamaytirishga,bolalarning maktabgacha ta`limga qamrovini **1,5 barobar oshirish** ko`zda tutildi va amaliy ishlar amalga oshirildi.



Maktabgacha ta`lim yoshdagi bolalarni sog`lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta`lim tarbiya tizimida alohida o`ringa ega bo`lib, u bolani sihat-salomatlilikka, to`g`ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta`lim tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o`zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi o`sib kelayotgan kelajak vorislarini aqli, ziyrak, har jixatdan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdan iboratdir. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida har bir mashg`ulotni yangi davr bolalarining aqliy tafakkuri dunyosini boyitish orqali tashkil qilish talab qilinadi. Maktabgacha ta`limda olingan bilim, shakllangan ilk dunyoqarash, hosil qilingan ko`nikma va malakalar inson hayotining keyingi davri uchun asosiy mezon vazifasini o`taydi.

Didaktik o`yinlar bola shaxsining tarkib topishida muhim, samarali qurol vazifasini o`taydi. Chunki hamma davrda ham, hamma millat va mamlakatdagi bolalar ham o`yinni o`zlarining eng asosiy faoliyati deb bilishadi. Bola dunyoni o`yin orqali bilishga intiladi, undagi nutq, tafakkur, axloqiy sifatlar, dunyoqarash o`yin faoliyatida shakllanadi, rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qtish va tarbiyalash o`ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyat ularning fiziologik va psixologik alomatlariga ko`ra ta`limni yangicha tashkil qilinishi, uning o`yin asosiga qurilganligi, ta`lim bilan o`yinning uyg`unlikda, o`zaro muntazamlikda olib borilishi bilan ifodalanadi.

O`yin bola xayotining uzviy qismidir. O`yin orqali bola bilim va ma'lumot oladi. Atrofdagi muhit bilan, tabiat xodisalari, manzaralar, buyumlar, qush va hayvonlar, o`simliklar dunyosi bilan tanishadi. Inson faoliyati, mehnati, turmushidan boxabar bo`ladi. O`yin jarayonida bola faqat tashqi muhit xodisalari bilan tanishib, uni his etib qolmasdan, balki, bu voqeа-xodisalarga nisbatan o`z munosabatini bildiradi. Uning yaxshi va yomonligini, ma`qul va noma`qulligini, yoqimli yoki yoqimsizligini farq qilishiga o`rganib boradi. Bola faoliyatida uning mehnati-o`qish va o`rganishni o`yin bilan shu qadar birikib ketadiki, ba`zan ular orasidagi tafovutni sezish qiyin bo`ladi.



Didaktik o`yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o`stirishga, atrof-muhit, tabiat bilan tanishtirishga yordam beradi, shuningdek narsalarning nomi, uning qayerda ishlatalishi bilan tanishtirishda ham qulaylik tug`diradi. Shuning uchun ham didaktik o`yinlar turli mavzu va mazmunda tashkil qilinadi.

Ta'lim jarayonida didaktik o`yinlardan ta'lim vositasi sifatida foydalanish doimiy dolzARB muammo sifatida, amaliyotga tadbiq etilgan.

Didaktik o`yinlarni muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O`yinda o`yin hay'ati, o`yin qoidalari, o`yin harakatlari o`rtasida uzviy aloqa mavjud. O`yin hay'ati harakatlarning tabiatini belgilaydi. O`yin qoidasi esa, o`yin harakatlarini, vazifasini xal etishga va o`yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o`yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o`yinlarda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq madaniyati, aqliy qobiliyatları takomillashadi. O`yin qoidasiga rioya qilish unga amal qilish o`yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o`yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o`yin, uning har bir takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo`lishni talab qiladi. Uni xal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik o`yinlarda tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha yetkaza bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Norbosheva M. Bolalar Psixologiyasi. T., 2002 yil
2. Rasulova M., Abdullaeva Q., Safarova L. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi – t.: 1999 yil 16 bet.
3. Roziqov O va boshqalar. Didaktika T; O`zbekiston «Fan» nashriyoti, 1997
4. Xasanboeva O.U va boshqalar.«Maktabgacha ta'lim pedagogika».T., 2006.
5. Hasanboyev J., Hasanboyeva O.,To`raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izohli lug`at. T-2008 yil.
6. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika T., 2007
7. <http://www.ziyonet.uz/>
8. <http://www.istedod.uz/>
9. <http://www.pedagog.uz/>
10. <http://www.google.uz/>



ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПАМЯТЬ ЧЕЛОВЕКА

Рафикова Рената Анатольевна,

Преподаватель кафедры Менеджмент образования

Наманганского государственного университета

natalistratilat2089@gmail.com 91-352-27-72

Аннотация: В тезисе рассматриваются особенности памяти личности, и влияние на нее информационных технологий. Описываются особенности, современное состояние и развитие исторической памяти в контексте развития личности. Ставится вопрос об объеме памяти, который требует дальнейшего изучения.

Ключевые слова: Информационные технологии, историческая память, объем памяти, мотивация запоминания.

Новые изобретения и новые технологии прочно вошли в нашу жизнь, сокращая между людьми расстояние, облегчая процессы счета и статистики, подъемом среднего класса, всеобщим средним и бесплатным высшим образованием, созданием пенсионных систем и прочими социальными благами. Перечисляя множество плюсов такой «удобной» для каждого из нас жизни, стоит отметить и присутствие негативной стороны. Ведь разговоры и сомнения о том, что интернет, мобильная связь, робототехника, растущие вычислительные мощности могут отказать отрицательное влияние на человечество уже не кажутся безосновательными. Множество вопросов возникает при анализе этого влияния. Как отразится на нашем познавательном развитии ИТ-технологии, в частности, мобильные телефоны, интернет и социальные сети, каким образом изменится наше сознание, изменится или оно вообще...

В процессе усвоения культурного опыта общества, наша психика достигла высокого уровня развития. Благодаря этому, мы многое можем и многое умеем. Сохраняя приобретенный опыт и знания, мы включаем в наше сознание всё больше переживаний, впечатлений, которые в свою очередь, оставляют в нашей памяти всё больше известных следов. При соответствующих условиях эти следы могут сохраняться достаточно длительное время и вновь становиться предметом сознания.

В теориях изучения памяти было сделано не мало открытий, в частности, ее исторической обусловленности, разновидности процессов, особенностей развития. На сегодняшний день существует много разноуровневых подходов к изучению процессов памяти. Это теории, изучающие сложнейшую систему психической деятельности на биохимическом, нейронном, физиологическом и психологическом уровнях. И чем сложнее изучаемая система памяти, тем, естественно, сложнее теория, пытающаяся найти механизм, лежащий в ее основе. Эти уровни можно назвать индивидуальными процессами. Но существует также понятие «памяти» у которой целый ряд таких дефиниций, как коллективная память, культурная память, историческая память, социальная память и т. д. [1.]. И обобщая эти понятия, можно говорить об исторической памяти, как одном из проявлений памяти и на коллективном, и индивидуальном уровне.

В психологической литературе можно найти разные толкования термина историческая память, которое имеет множество вариаций. На наш взгляд, в целом историческую память можно определить как способность общественных субъектов сохранять и передавать из поколения в поколение знаний о произошедших исторических событиях, об исторических деятелях ушедших эпох, о национальных героях и вероотступниках, о традициях и коллективном опыте освоения социального и природного мира, об этапах, которые прошел тот или иной этнос, нация, народ в своем развитии [6; 23]. То есть, историческая память рассматривается как некий набор информации или комплекс мифов, исторических сообщений, которые передаются из поколения в поколение. Также можно говорить и об объеме этих знаний. Ведь чем больше фактов, событий и явлений, тем больше необходимость их запомнить. [7; 303] Если возвратиться к индивидуальным особенностям запоминания, где исследователи установили, что в обычных условиях человек может запомнить 8 десятичных знаков, 7 букв расположенных не по алфавиту, 4-5 цифр, 5 синонимов. И перегрузок



практически не бывает. По мнению психологов, обычно бывает достаточно запомнить не более 4-х цифр, 5-6 букв, 4 синонима и 6 десятичных цифр. Но объем памяти уменьшается, если альтернатива увеличивается. Так, например, объем памяти на различные предметы и цвета равен 3, на числа и точки – 8-9, на буквы – 6-9, на геометрические фигуры – 3-8 и т.д. [2; 233] В предъявлении стимула, несомненно, память работает. А если брать память в объеме общих знаний. Многое ли знает и помнит человек? Весь процесс обучения построен на развитие всех ВПФ. Но при всём при этом у нас пропала мотивация запоминать материал. Мы полагаемся на свои гаджеты, которые напомнят нам о событиях, которые посчитают нам все возможные формулы и приведут статистику. Хорошо известны исследования Л. Л. Смирнова и П. И. Зинченко, проводимые с позиции психологической теории деятельности. Они описали законы памяти как осмысленной человеческой деятельности и установили зависимость запоминания от поставленной задачи. [3], [4; 448] Какие задачи ставят люди перед собой сегодня? Не стоит задача прочитать и запомнить литературное произведение, ведь можно найти его в поисковых системах. Не стоит задача понять исторические события и явления, ведь их с легкостью можно найти в интернете. Приводит ли это к сокращению исторической памяти или к ее расширению, так как, технологии не стоят на месте и с каждым днем усложняются в разы.

Стоит отметить что, историческая память не только социально дифференцирована, она подвергается изменениям. В истории самых разных культурно – исторических общностей известно множество примеров «актуализации прошлого», обращения к прошлому опыту с целью его переосмысливания. Частью общественного сознания является интерес к прошлому, а крупные события и перемены в социальных условиях, накопление и осмысливание нового опыта порождают изменение этого сознания и переоценку прошлого. Именно в сети интерактивных коммуникаций происходит постоянный отбор событий, в результате чего некоторые из них подвергаются забвению, в то время как другие сохраняются, подвергаются реинтерпретации, обрастают новыми смыслами и превращаются в символы групповой идентичности. [5].

Резюмируя вышесказанное, мы делаем вывод, что историческая память играет немаловажную роль в формировании общественного сознания, а зачастую находится в основе этого сознания. Современные информационные технологии могут оказывать негативное влияние на исторический объем памяти. Упрощенные в своем виде задачи, ослабляют мотивационную сферу человека к запоминанию и обработке информационного материала, что в свою очередь приводит к сокращению общего объема памяти человека.

Список литературы

1. Ахметшина А.В. Понятие «историческая память» и ее значение в современном Российском обществе// Актуальные вопросы общественных наук: социология, политология, философия, история: сб. ст. по матер. XXXVIII междунар. науч.-практ. конф. № 6(38). – Новосибирск: СибАК, 2014.
2. Маклаков А.Г. Общая психология: учебное пособие для студентов вузов и слушателей курсов психологических дисциплин / А. Г. Маклаков. - Санкт-Петербург [и др.] : Питер, Питер Пресс, 2017. - 582 с.
3. Немов, Р. С. Психология: учебник / Р. С. Немов. – Москва: КноРус, 2014. – 718 с.
4. Общая психология: Курс лекций для первой ступени педагогического образования/ Сост. Е.И. Рогов. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000.
5. П. Рикер. Время и рассказ. Т. 1–2. М. – СПб., 2000
6. Путятина Т.П. Формирование исторического сознания школьной молодёжи в условиях трансформации российского общества: Автореф. дис. канд. социол. наук. М., 2007. — 23
7. Рамендиқ, Д. М. Общая психология и психологический практикум: учебник / Д. М. Рамендиқ. – Москва: Юрайт, 2016. – 303 с.
8. Хаттон П. История как искусство памяти. СПб.: Изд-во Владимир Даль, 2004. С. 191-208.



БЎЛАЖАК ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЁЗУВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Тошматов Алимардон Сотовлдиевич
Фарғона давлат университети
Тел. +998 93 681 41 14

Аннотация. Мазур маколада сўз чет тили ўқитувчиларининг ёзув кўникмасини ривожлантиришга қаратилган. Ёзув кўникмасини ривожлантириш ёш ўқувчиларга янги луғат тузиш (ёзма фикр баён этиш мақсадида гапларни биритириш)ни ўрганиш, кашф этиш имконини беради. Бу эса шахсий фикрлаш ва мустақил ижодкорликнинг юқори даражасига чиқишига имкон беради.

Калит сўзлар. Ёзув, кўникма ривожлантириш, ёш, чет тили, ўқувчи, янги, луғат, компетенция.

Ҳозирги рақамли технологиялар жадал ривожланаётган бир даврда бўлажак чет тил ўқитувчиларининг инглиз тилида ёзма нутқ компетенциясини такомиллаштириш масалалари долзарб ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларининг она тилидаги ёзма нутқининг ривожланганлиги билан бевосита боғлиқдир. Ушбу муаммони ҳал қилиш ўзбек тингловчилари ёзма нутқининг алоҳида ўзига хос психолингвистик жиҳатларини тадқиқ қилишни талаб этади. Ўзбекистон чет тиллар таълими тизимида умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларининг она тили ва чет тилларда ёзув компетенциясини шакллантиришни маданиятларо мулоқотни ривожлантиришда асос вазифасини бажаради.

Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларининг маданиятларо мулоқот компетенцияси ва чет тилларда ёзма нутқ компетенциясини ривожлантиришда она тили фанининг асосий пойдевор сифатидаги ролини кўрсатиб беради. Хусусан она тили фанини ўқитиша инновацион ёндашув методларидан фойдаланиш принциплари, долзарб масалалар ечимининг мақсад ва вазифаларини ҳамда таълим муассасаларида мазкур фанни ўқитишнинг асосий йўналишларини белгилаб беради. Жумладан, она тили фани ДТС талабларининг таълим сифати ва кадрлар тайёрлашга қўйиладиган ҳалқаро талабларга мувофиқлигини таъминлаш, она тили фани бўйича умумий ўрта таълим муассасалари битирувчиларига қўйиладиган малака талабларининг амалиётга тадбиқ этилиши олий таълим муассасаларидағи чет тиллар таълими сифатини оширишни таъминлашга хизмат қилиши, умумий ўрта таълим мактабларида она тили фани мазмунини бойитиш, шунингдек, ўқитиша методикасини такомиллаштириш, она тили фанининг хорижий тиллар фанлари билан ўзаро интеграцияси ва ўқувчиларнинг нутқий ва лингвистик компетенциясини оширишни ташкил этиш каби вазифаларни ҳал этишга қаратилган.

Таъкидлаш жоизки, она тили фани бўйича синфдан ва мактабдан ташқари таълимнинг замонавий усуллари ва йўналишларини жорий этиш, она тили фанини ўқитиша вариатив ўқув модулларини ишлаб чиқиши узлуксиз таълимнинг кейинги босқичларида чет тилда ёзув компетенциясининг ривожланишини кафолатлади. Шу билан бирга чет тилда ёзув малакаларини такомиллаштиришнинг мақсади ва психолингвистик принциплари ҳамда омилларини янада аниқлаштиришга хизмат қиласи.

Тадқиқотомиз аксарият битирувчи ўқувчиларнинг биринчи тили, яъни она тилида ёзув кўникмаларини тўлиқ ривожлантира олмаётганини аниқлади. Маълумки, ёзув кўникмасини ривожлантириш ёш ўқувчиларга янги луғат ва тузиш (ёзма фикр баён этиш мақсадида гапларни биритириш)ни ўрганиш, кашф этиш имконини беради. Бу эса шахсий фикрлаш ва мустақил ижодкорликнинг юқори даражасига чиқишига имкон беради. Хусусан, ёш ўқувчиларга таваккал қилиш ва янги сўзларни ёзиш, амалда синааб кўриш имконини беради ва албаттa кўпроқ “фикр юритиш” аҳамият касб этади. Ёзув кўникмалари ёш ўқувчиларнинг келажакда рақобтбардош мутахассис бўлиб этишиши ва билими учун мустаҳкам асос вазифасини бажаради.

Юқорида қайд этилган фикрлар, ўз навбатида, синфда ёзма топшириқларнинг ранг-баранг бўлиши ва нутқий компетенцияларни эгаллашнинг социокултурологик ёндашуви методларини қўллашни таъминлайди. Ўқитувчилар ўқувчиларнинг хусниҳат кўникмаси, имло кўникмаси, тузиш (ёзма фикр баён этиш мақсадида гапларни биритириш) кўникмаси,



ёзувнинг лексик ва грамматик қўникмалари ёзув компетенциясини эгаллашнинг кучли томонлари эканлигини тингловчиларга тушунтириб беришлари ва сўз бойлигини ошганлиги бўйича мониторинг олиб боришлари талаб қилинади. Бу соҳага эътибор қаратиш ёшлиқдан ёзувни ўрганиш мотиватсиясини уйғотади.

Ёзма нутқнинг самарали ривожланиши ўқишига берилган матн мазмунининг тўғрилиги ва мослиги билан кафолатланади.

Аниқ ва яхлитликка эга ёзувни ривожлантириш қоидаларига қўйидагиларни киритишимиз мумкин:

- грамматика ва лугат
 - имло ва тиниш белгилари
 - товуш ва сўзларнинг таллаффузи
- Мазмуннинг ифодали чиқиши қўйидагиларга қаратилган:
- ўқувчига маълумотни муваффақиятли етказиш
 - етарлича батафсил маълумотни тақдим этиш
 - фикрларни мантикий тартиблаш
 - тегишли маълумотдан фойдаланиш
 - ғояларнинг ўзига хослиги

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алимов Ф.Ш. / Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида) // автореф.дисс... (PhD). пед. наук. – Ташкент, 2018. – Б. 44.
2. J.J.Jalolov / Chet til oqitish metodikasi // Chet tillar oliv o ‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik // „0‘qituvchi“ Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi, Toshkent – 2012. 284-285 betlar.
3. Woodall B.R. / Language switching using first language while writing a second language // Journal of Second Language writing online. Pp. 7-28. <http://www.aitech.ac/iteslj/.html> 2004.
4. Wang L. / Switching to first language among writers with differing second- language proficiency // Journal of Second Language Writing online. (online) <http://www.aitech.ac/iteslj/.html>. 2004.



ONA TILI MILLATNING BIRLIGI VA BIRDAMLIGINING TIMSOLIDIR

Akramova Munojat

To'raqo'rg'on tumani 2-sonli kasb-hunar
maktabi ona tilli va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili millatning birligi, o'zbek tili bizning boyligimiz ekanligi, til muloqot shakli ekanligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: til, ona tili, muloqot, timsol, xalq, davlat, duno, vatan, ma'naviyat.

Ona tili – millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tili ham bo'ladi. Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insонning hayotda o'z o'rmini topishida, kamolotga erishuviga tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudida qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebafo jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. Turk dunyosining buyuk marifatparvar ijodkori Ismoilbek Gaspirali aytganidek : “Millatning ikki asosi bordur. Bu ularning tili va dinidur. Agar millat hayotidan shu ikkisidan biri sug'urib olinsa, bu millat tanazzulga yuz tutur”.

Suv siz daryo bo'limganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub bo'lgan til, o'sha millat bilan yashaydi va bardavom bo'ladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, A.Navoiy, Zahreddin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebafo boyligimizdir. So'z mulkining sultonib, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz ximoyasiga otlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jigatdan isbotlab berdi. O'zining “Hamsa” kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar. Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday ma'naviyatga ega ekanini uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebafo xazinasi, tunganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma'naviy merosi, urf-odatlari va an'alari unda mujassam bo'ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Birinchi Prezidentimizning ta'bri bilan aytganda “O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi”. Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi.

1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjalari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda “Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida”gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rinnegi egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellerda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mayjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanova “O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning shundayin go'zalligini, sofligini keying avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilni ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir.

Til muloqot vazifasi ham hisoblanadi. Hammamizga ma'lumki, mashhur bo'lgan A. Navoiy bobomizga tegishli “Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so'z bil”. Inson qalbining xazinasi til, bu qalb xazinasining kaliti so'zdir. O'zbek tilining so'zları shu qadar ma'noli, ko'pki



bitta ma'noga ega bo'lgan tushunchasi bir nechta so'zlar orqali ifodalash bo'ladi. Masalan, birligina ko'z so'zining bir necha ma'nolari bor. Bilamizki bir tushunchaga tegishli so'z, bir necha so'zlar bilan ifodalansa, ya'ni sinonim so'zlari qanchalik ko'p bo'lsa, ayni shu til boy til hisoblanadi. Ko'plab adiblarimiz til haqida ko'plab hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlicha ta'riflaganlar. Masalan, “Til-millat ko'zgusi”, “Til-ma'naviyat ko'zgusi”, “Til-millatning bebaho boyligi” va shu kabilardir. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqlol yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Til – millat ko'zgusi, deb bejiz aytilmagan. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrif, yoshlari yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir.

Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofigini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi”. Agar biz o'z tilimizning ko'rakligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz musyahkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek “Millatni yo'q qilish uchun u yerga quroq ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi” degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To`xliev B., SHamsieva M., Ziyodova Toshkent, O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2006 yil.
2. Sobirova M. Ta'limda ilg'or texnologiya. O'zbek tili ta'limi jarayonida milliy istiqlol g'oyasini singdirish masalalari. Toshkent, 2003 yil



**O‘QUVCHILARDA KITOBOXONLIK VOSITASIDA BADIY ADABIYOT
NAMUNALARIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK YO‘NALISHLARI.**

Danaeva Gulgora Xursandovna
Yunusoobod tumani 150-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda badiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirish haqida fikrlar yuritilgan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchi badiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishda o‘quvchilarning badiy didi, ijodiy faolligi, nutqi, intellekti va mantiqiy, obratzli tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga egaligi tahsil qilingan.

Tayanch so‘z va iboralar: kitobxonlik, badiy adabiyot namunalarini, qiziqish, interfaol texnologiyalar, so‘z zaxirasini boyitadi, obratzli tafakkurini rivojlantirish, kitob bilan muloqot, asar matni, metodlar: viktorina, krasvord.

O‘quvchi boshlang‘ich sinfga qadam qo‘yishi bilan o‘qituvchi ularni kitobga alohida qiziqish bilan qarashga undaydi. Pedagoglar har doim o‘quvchilarga badiy adabiyot namunalarining ahamiyati haqida so‘zlab beradilar. Kitobxonlik – eng yaxshi mashg‘ulot ekanligini tushuntiradilar.

Agar o‘quvchi o‘qish texnikasini yetarli darajada egallamagan bo‘lsa, o‘qigan asarining mazmuni ustida fikrashga qiyalsalisa, bu shubhasiz, istiqbolda o‘qish motivlarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki axborotlar ko‘lami kengaygan sari uni o‘zlashtirish murakkablashadi. Bunday vaziyatda o‘quvchilarda badiy adabiyot namunalariga bo‘lgan qiziqish shakllanmay qoladi. Ular kitob o‘qishdan bezadilar. Nazarda tutilgan ko‘nikmalarni samarali shakllantirish uchun o‘quvchilarda badiy adabiyot namunalariga qiziqish, ularni muntazam o‘qish va tushunish ehtiyojini shakllantirish lozim.

Badiy asarlarni o‘qib o‘rganishga nisbatan motivatsiyani rivojlantirishda o‘quvchilarni asar muallifi g‘oyasi va nuqtai nazarlarini tushunishga yo‘naltirish, ularda asar matniga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Badiy asar namunalariga bo‘lgan qiziqish o‘quvchilarni faol tarzda kitobxonlikka yo‘naltiradi. Agar o‘quvchining faolligi o‘qilayotgan badiy adabiyot namunasini o‘zlashtirishga yo‘naltirilsa, bilish qiziqishlari haqida fikr yuritiladi. Agar o‘quvchining faolligi badiy adabiyot namunasi bilan tanishish jarayonida asar qaxramonlari bilan muloqot qilishga yo‘naltirilsa, turli-tuman ijtimoiy muloqot shakllari haqida fikr yuritiladi.

Ular kitobni o‘qib tushunishga qiynganganlarda ushbu faoliyatdan osongina voz kechib, kompyuter bilan muloqotga kirishadilar. O‘quvchilar kitob o‘qishga da’vat etganlarida ota-onalar va o‘qituvchilardan norozi bo‘ladilar. Bora-bora ular kompyuter va televizorga qattiq bog‘lanib qoladilar. Yomon baho olishdan qo‘rqish hissi o‘quvchilarda badiy asarni o‘qish istagini yo‘qolib borishiga sabab bo‘lmoqda. Aksariyat past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar badiy asarlarni o‘qishga mutlaqo qiziqmaydilar. Bu esa ularning bilish faoliyatları rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Badiy adabiyot namunalarini o‘qishga nisbatan qiziqishning barqaror bo‘lmashligi tashqi omillarning ta’siri bilan bog‘liq.

O‘quvchilarda badiy adabiyot namunalariga bo‘lgan qiziqish quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Ijobiy va salbiy;
- Tashqi va ichki;
- Barqaror va nobarqaror.

Kitobxonlik mayllari ijtimoiy, tor shaxsiy va bilishga asoslangan bo‘ladi. Ijtimoiy mayllar burch hissi, boshqadan orqada qolmasliikka intilishda ko‘rinadi. Tor shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan mayllar esa atrofdagilarning e’tirofi, shaxsiy muvaffaqiyatga erishish yo‘li, o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishida o‘z aksini topadi. Bilish mayllari esa yangi bilimlarni o‘zlashtirish istagi, o‘z dunyoqarashini kengaytirish ehtiyoji bilan bog‘liq holda vujudga keladi.

Badiy adabiyot namunalariga bo‘lgan qiziqish mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- Kitobxonlikka nisbatan ijobjiy xis-tuyg‘ularga boy munosabat;



- O‘quvchilarni faol tarzdagi bilish va shaxsiy faoliyatga yo‘naltirishga asoslangan kitobxonlik faoliyati;

- Mazkur yo‘nalishlarning barqaror xarakterga egaligi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy adabiyot namunalariga qiziqishlarining yuqori darajasiga erishish quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Kitobxonlik faoliyatiga nisbatan ijobjiy munosabat;

- Muayyan badiiy asarlarga qiziqish;

- Kitobxonlik jarayonini kengaytirish va unga o‘quvchilarni jalg etish;

- Kitob bilan muloqot jarayonidagi qoniqish xissini sinfdoshlari, o‘qituvchilari va ota-onalari bilan bo‘lishish kabilalar.

Kichik maktab yoshida o‘quvchilar uchun badiiy asarlar hayotiy zaruriyat manbai bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham bunday asarlarga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi kuzatilmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maroqli o‘qish turlaridan biri “Kim berkinmachoq o‘ynaydi” nomli mashg‘ulotdir.

O‘qituvchi doskaga olti qator xarflar yozadi. Tasodifiy xarflar yig‘indisidan so‘z paydo bo‘ladi. O‘quvchilar kim ular bilan berkinmachoq o‘ynashini bilib oladilar: hayvonlar, qushlar, xashorotlar, o‘simliklar bo‘lishi mumkin. Bunday mashqlar o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalari va diqqatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda badiiy asar namunalariga qiziqishni shakllantirishda ularning kutubxonaga muntazam qatnashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Suhbatlar jarayonida o‘quvchilar bolalar adabiyotining yangi namunalari bilan tanishtiriladilar. Kitob tanlashga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, ommaviy axborot vositalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish orqali kitoblarga nisbatan alohida qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarni badiiy adabiyot namunalari bilan yaqindan tanishtirish orqali ularda kitobga nisbatan alohida muxabbat uyg‘otiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 112 b.

2. Voyushina M.P. Metodika obucheniya literature v nachalnoy shkole: uchebnik dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy / pod. red. M. P. Voyushina. M.: IS «Akademiya», 2010. S. 266.



**BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK
TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.**

Kurbanova Zulfiya Mirshaxidovna
Yunusoobod tumani 150-maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari dars jarayonlarida ilg‘or pedagogik tajribalarni qo‘llash haqida fikrlar yuritilgan. Mahoratli o‘qituvchi bir paytning o‘zida ilg‘or pedtexnologiyalar, didaktik o‘yinlar orqali butun sinfning faolligiga, ularning ishtirok etishiga va darsga qaratilgan topshiriqlarni bajarishlariga erisha olishning usul va yo‘llari to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: ilg‘or pedagogik tajribalarni qo‘llash, qiziqish, interfaol metodlar; amaliy-ijodiy, novator, ta’lim oluvchilarda, yangilik va originallik, videotopishmoq metodidan foydalanish.

O‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir-deb ta’kidlagan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.

Dars nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki bola shaxsini shakllantirish va rivojlantirish vositasi hamdir. Pedagogik tajriba- bu o‘qituvchi mahoratidagi o‘ziga xoslik va yangilik, bu amaliy-ijodiy izlanishga asoslangan samarali tajribadir. Darhaqiqat sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo‘shtan ulushlari nihoyatda boy bo‘lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo‘nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. Ular:

- aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog‘langan qadriyatlar;
- ma’naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- badiiy-nafis qadriyatlar;

diniy qadriyatlar tarzida o‘z ifodasini topgan. Ular xanuzgacha ilg‘or pedagogik tajribalar sifatida o‘rganiladi.

Zamonaviy o‘qituvchi bilim va ma‘lumot uzatuvchisi emas, balki o‘quvchi bilan hamkorlik qiluvchi o‘quv jarayonining tashkilotchisi. U bolalar bilan hamkorlikda fanni o‘rganadi, shu bilan birga bolaga dunyo manzarasining yaxlitligini anglash yo‘llarini o‘rgatadi.

Ilg‘or pedagogik tajribalar-xususiy va qat‘iy ma’noda, eng avvalo, o‘zida ijodiy izlanish, yangilik, va originallik, ya’ni o‘ziga xoslik, boshqacha aytganda, novatorlik xususiyatlarini mujassamlashtirgan amaliyot hisoblanadi. Novator-hayotga yangi narsalarni olib kiruvchi va har qanday faoliyatda ilg‘or g‘oyalarni, texnikalarni va shunga o‘xshashlarni kiritadigan kishi. 1930-yillarning matbuotida paydo bo‘lgan. Demak bugungi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars jarayonida navatorlik qila olishi, har bir darsida yangicha ma‘lumotlarni olib kirib dars sifatini oshirishi kerak ekan. O‘qituvchi dars jarayonida qanday usulni qo‘llamasin, qanday didaktik vositalardan foydalanmasin, qanday ishlanma, didaktik vosita yoki audio-video material yaratmasin, ilg‘or tajriba deb dars samaradorligini oshirilishini aytish mumkin.

Mahoratli o‘qituvchi bir paytning o‘zida ilg‘or pedtexnologiyalar, didaktik o‘yinlar orqali butun sinfning faolligiga, ularning ishtirok etishiga va darsga qaratilgan topshiriqlarni bajarishlariga erisha oladi.

Har bir darsning maqsadi ta’lim oluvchilarning bilish, o‘rganish va bajarish faolligini oshirish uchun sharoit yaratishdan iborat. Buning uchun quyidagilar muhim deb hisoblanadi:

- ta’lim oluvchilarning sub’ektiv tajribasini ochib berish uchun darsni tashkil etishning har xil usullarini qo‘llash;
- individual, guruhiy va jamoaviy ishlarni tashkil etishda ta’lim oluvchilarning erkin ishlashi, qiziqishi va intilishlari uchun muhit yaratish;
- ta’lim oluvchilarda topshiriqlarni bajarishda, savollarga javob berishda «noto‘g’ri» javob berib quyishdan qo‘rqish holatini yuzaga keltirmaslik, qo‘rmasdan bemalol va erkin fikrni bayon eta oladigan muhitni yaratish;
- javoblarni rag’batlanirib borish (javob noto‘ri bo‘lsa ham intilish bor», «xato qilishga haqi bor, xatolaridan o‘rgansin) degan tamoyilga asoslanish.



Ilg‘or ish tajribani o‘rganishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- o‘rganish uchun o‘zida ta’lim jarayonidagi zamonaviy muammolar yechimini aks ettiruvchi tajribani tanlash;
- aniqlangan tajribani uzoq davrga mo‘ljallab ishlab chiqilgan dastur asosida ta’limning butun ko‘lамини qamrab oлган holda o‘rganish;
- tajribani o‘rganish jarayoniga ilg‘or ish tajribali o‘qituvchilarni imkon darajasida ko‘proq jalg‘ etish;
- o‘rganilayotgan tajribaning muammolarga ta’sir qiluvchi va tuzatuvchi xarakterga ega ekanligini e’tiborga olish;
- o‘rganilayotgan ish tajribaga samarali ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirilganligi va uning ta’lim mazmuniga singdirilganligi;
- o‘qituvchi darslarining 3 yillik o‘quv davri davomidagi samaradorligini tahlil qilish;

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi ilg‘or tajribalardan foydalanar ekan albatta interfaol metodlar alohida o‘rin tutadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og‘zaki nutqini o’stirib, lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi darsda qo‘llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi uning o‘tgan, yangi mavzu materialini o‘quvchilarning qay darajada o‘zlashtirib oлганliklari bilan belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A, Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. T:Fan va texnologiyalar. 2012 y.
2. Ro‘ziqulova N.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (PhD) ... diss. avtoref. – T.: 2020. - 141 b.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.



**O'QUVCHILARNI TASVIRIY FAOLIYATGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING METODIKASI.**

Nazrullayeva Gavhar Temurovna
Yunusoobod tumani 150-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda tasviriy faoliyatga qiziqishlari haqida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatga bo'lган qiziqishlarini oshirishning usul va yo'llari, prinsiplari, ko'rgazmalik faoliyati, rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holati, rangi va och-to'qlik nisbatlarini anglashi to'g'risida tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: tasviriy faoliyatga qiziqishlari, vizual o'r ganishlari, bilim, ko'nikmalarini shakllantirish, qiziqish, mo'jiza yoki fantaziya, tasviriy san'at sirlarini o'zlashtirish.

Jamiyatimizning har bir kishisi qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar, go'zallik va nafislikni ko'ra olish va tushuna bilishi kerak.

Rus rassomi va pedagogi D.N. Kardovskiy «San'atni o'r ganayotganlar tasvirlashning yo'llari va usullari, ya'ni narsalarning shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar» – deb aytib o'tgan. O'qitishning asosiy talablari uchun zaruriy shartlar esa tasviriy san'at sirlarini o'zlashtirish bilan birga o'quvchi va yoshlarga har jihatdan o'rgata olish usullarini egallashdir.

Ma'lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma'lum. Shunisi xarakterlik, bolalar o'qish va yozishdan ko'ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo'ladi, 1-2 minut, ko'pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo'yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo'lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko'rinishni, voqeani yoki buyumni o'z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarni tasvirlay oladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddallashtirishga bo'lган xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (*uy, odam, kitob, soat, portfel*) ayrimlarini yon tomonidan (*mashina, qayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha v.b.*), yana boshqalarini ustki tomonidan (*kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz v.b.*) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug'soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib yetmaganliklaridir.

Tasviriy san'at darslari barcha fanlar bilan aloqadorligi bilan ham ajralib turadi. Bularga o'qish, matematika, tabbiy fan, ona tili va boshqa qator fanlar kiradi. Masalan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanlarini tushuntirishda mevalar, gullar, hayvonlar va boshqa narsalarning rasmlari orqali tushuntiriladi, ona tili fanlarida ham rasmlardan foydalanib o'quvchilarga topshiriqlar beriladi, bunday vaziyatda o'quvchilarning tasviriy san'at faniga bo'lган qiziqishlari va vizual o'r ganishlari shakillanib boradi. O'quvchi tasviriy san'atni barcha fanlar bilan bog'lab o'r ganib boradigan bo'lsa, kelajakda barcha narsalarga e'tiborli va yorqinlik bilan qaray oladigan shaxs bo'lib yetishadi.

Ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining ma'lum bir mazmunni bolalarga yetkazish, ularning bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va muayyan faoliyat sohasidagi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanishiga bog'liq. Tasviriv san'at darslarida ham kreativ yondashuv va bolani jalb etaolish eng muhum qisim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi vizual; og'zaki; va amaliy shakllar bilan o'quvchilarni qiziqtirib boradi, turli xil rasmlar orqali ularning obrazga bo'lган fikrini mustahkamlaydi. Bunda bola jarayondagi axborotni ko'rish, kuzatish orqali qabul qilsa, og'zaki usulda esa eshitish va tassavur qilish bilan darsni o'zlashtirib oladi. O'qitish jarayonida eshitish, ko'rish va bajarish shakillarining barchasidan foydalanilgan holatta dars 100% o'quvchining ongiga kiradi shu sababli tasviriy san'at fanlarida bu usullarning barchasidan foydalanish eng muhum jarayondir. Bundan so'ng esa Reproduktiv usul bilan bolalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash kerak bo'ladi.

Bunda ham bir necha usullardan foydalanish lozim bo'ladi. Bular ko'nikmalarini avtomatizmga olib keladigan mashqlar hisoblandi. Bunga quydagilar kiradi: takrorni qabul qilish; (yani



darsni takrorlash) qoralama ustida ishslash; (bajarilgan ishlarini yanada mustahkamlash) qo'lda shakllantirish harakatlarini bajarish (tasviriy va amaliy san'at turlarida amalga oshiriladi).

O'quvchining ongini yanada shakillantirib borish uchun quydagi usullardan ham foydalanib borish lozim.

- Evristik usul mustaqillikni nimada namoyon etishga qaratilgan
- yoki sinfdagi ish vaqtি, ya'ni o'qituvchi boladan ishning bir qismini mustaqil ravishda bajarishni so'raydi.
- Tadqiqot usuli bolalarda nafaqat mustaqillikni, balki tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. O'qituvchi mustaqil ravishda biron bir qismni emas, balki butun ishni bajarishni taklif qiladi.

Shunday qilib, rasm chizishda birinchi yosh guruh uchun asosiy texnika qalam va bo'yoqlardan qanday foydalanish kerakligini ko'rsatishdir. Eng samarali texnika passiv harakatlar bo'lib, bola mustaqil ravishda emas, balki yordam bilan harakat qilingan usullardir. Bunda o'quvchilar "oldinga va orqaga", "yuqoridan - pastga" va hokazo so'zlarning talaffuzi bilan bir hil, ritmik xarakterdagi samarali tasviriy harakatlar qo'shish orqali o'rganib boradilar. Ushbu uslub ob'ektning tasvirini tasviriy harakat bilan bog'lash imkonini beradi.

Bundan kelib chiqadiki fanni yuqori temp va yangi bilimlar va intelektual o'yinlar bilan olib borishimiz kerak bo'ladi. Masalan:

- Dars jarayonida bolalarni guruhg'a ajratib ularga turli xil mavzular berib qog'oz va qalamlar bilan berilgan mavzuga doir rasm chizishni so'rash.
- Har bir o'quvchiga o'zi qiziqgan mavzuga mos tasvir yaratishishiga imkon berish.
- Qiziqishlarini bilish uchun ularing qaysi ranglarni yaxshi ko'rishini aniqlab, so'ng psixologik jihatdan topshiriqlar ajratish. Bu orqali bolalar ham fanga ham jarayonga qiziqishini yo'qotmay darslarni o'zlashtirib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduraxmonov G'.M Kompozitsiya asoslari. "Iqtisod-moliya" T. -2010 y.
2. Sh.U.Bobonazarov. "Qalamtasvir" o'quv qo'llanma. Navoiy, Aziz kitobxon. 2021 y.



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI BO‘YICHA ELEKTRON
O‘QUV QO‘LLANMALAR YARATISH TEXNOLOGIYASI**

Tangirov Xurram Ergashevich

Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi,
(+998936502580, xurram_t@mail.ru)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratish texnologiyasi, dunyo aholisining internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: internet, ijtimoiy tarmoq, mobil ilova, informatika va axborot texnologiyalari, elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi juda tezlik bilan rivojlanib bormoqda, undan foydalanuvchilar soni ham shunga mos juda tez oshib bormoqda.

Dunyo aholisi 2022 yil yanvar holatiga ko‘ra, 7,91 milliard kishini tashkil etgan va yillik o‘sish 1% ni tashkil qiladi. Dunyo aholisining yarmidan ko‘pi (57%) shaharlarda yashaydi. Bugungi kunda dunyo aholisining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i (67,1%) mobil telefonlardan foydalanadi, 2022-yil boshiga kelib mobil foydalanuvchilar soni 5,31 milliard kishiga yetdi. O‘tgan yil boshidan buyon o‘sish 95 million foydalanuvchini tashkil etdi [4].

2022 yil boshida, yanvar oyida dunyo bo‘ylab internetdan foydalanuvchilar soni 4,95 milliard kishiga yetgan, bu dunyo aholisining 62,5 foizi internetdan foydalanadi, degani. Shuningdek, yil boshida dunyo bo‘ylab 4,62 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor edi, bu butun dunyo aholisining 58,4 foizini tashkil etadi. Oxirgi 12 oy ichida global ijtimoiy tarmoq auditoriyasi 10 foizdan ko‘proqqa oshdi, 2021-yilda ijtimoiy tarmoqlarga 424 million yangi foydalanuvchi qo‘sildi [4].

Bundan ko‘rinib turibdiki, fanlar bo‘yicha, xususan, Informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslarini yaratish va ularni Internet tarmog‘iga web-saytlar yaratish orqali joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarga kanallar, guruuhlar, bloklar, alohida sahifalar yaratish orqali joylashtirish, mobil ilovalar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmonining to‘rtinchi Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish bandida “... umumiyo‘rtata’lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish; ta’lim muassasalarini qurish, ularni kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali moddiy-texnika bazasini mustahkamlash” [1] kabi dolzarb masalalar keltirib o‘tilgan.

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni orqali davlatimiz tomonidan ta’limga axborot texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha katta e’tibor qaratilayotganligini ko‘rishimiz mumkin [2]. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanmalar orqali dars jarayonini olib borish o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshishiga xizmat qiladi.

O‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ya’ni elektron o‘quv adabiyotlar yaratish bu boradagi muhim ishlardir. Bugungi kunda elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish uchun oddiy algoritmik dasturlash tilidan tortib turli pedagogik dasturiy vositalar qo‘llanilmoqda. Bunday dasturlar yordamida va Internet texnologiyalaridan foydalanib fanlar bo‘yicha, shu jumladan, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanma yaratish mumkin. Shu kunga qadar mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha multimediali o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari yaratilgan, shuningdek, ularning Internet versiyalar ham yaratilib, internet tarmog‘iga (www.edarslik.uz saytiga) joylashtirilgan. Elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari quyidagi bo‘limlardan tashkil topgan: dastur tavsifi; mavzu mazmunini tanlash; mashg‘ulotni namoyish etish qobig‘i; amaliy topshiriqlar; grafik animatsiya; ovoz berish fayllari; matnli fayllar; nazorat dasturi (test dasturi).

Ushbu elektron o‘quv qo‘llanma bir qator imkoniyatlarga ega: o‘quvchilar dasturning menyusi yordamida ixtiyoriy dars mavzusini tanlash va boshqa mavzuga tez o‘tish imkoniyatiga ega



bo‘ladilar. Shuningdek, foydalanuvchilar oldingi va navbatdagi mavzularga o‘tish, taqdimotlarni ko‘rish, o‘rganilgan tushunchalarga tezkor o‘tish, glossariydan foydalanish, videodarslarni ko‘rish, krossvordlar yechish, mavzuga doir testlarni yechish orqali o‘z-o‘zini baholash kabi bir qator ishlar ko‘lamini osongina bajarishlari mumkin. Bu esa bunday imkoniyatlari bilan boshqa an’anaviy o‘quv qo‘llanmadan tubdan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son*).
3. Tangirov X.E. Informatikani o‘qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish // “Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limini modernizatsiyalash istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari to‘plami. Navoiy: NDPI, 2018 yil 25 may. 24-26 betlar.
4. <https://www.web-canape.ru/business/statistika-interneta-i-socsetej-na-2022-god-cifry-i-trendy-v-mire-i-v-rossii/> - sayt materiallaridan olindi.



BOSHLANG'ICH SINF TABIIY FAN DARSLARIDA OG'ZAKI O'QITISH METODLARI

Turdibayeva Soxiba Rashidovna
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39 – maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanni o'qitishda turli qiziqarli o'yinlar va samarali o'qitish metodlaridan foydalanish.

Kalit so'zlar: ta'riflash, xarakterlash, suhbat metodi, metodik uslublar, hikoya metodi, muhokama.

Tabiiy fan, tabiiyot - tabiat haqidagi fanlar tizimi, tabiiy fanlar majmui.

Tabiatning inson ongida iksibo'lgan tabiiy fanjamiyatning rivojlanishi bilan mukammallashadi. Tabiiy fanning maqsadi - tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, tabiat qonunlarini bilish hamda ulardan amalda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish. Tabiiy fan, asosan, fundamental fanlar bo'lgan mexanika, fizika, kimyo va biologiyadan tashkil topgan. Astronomiya, geologiya, tibbiyot fanlari, qishloq xo'jaligi, fanlari, ekologiya kabi ko'plab bilim tarmoqlari shu fundamental fanlardan kelib chiqqan.

Metodlar bilan metodik uslublarni farqlash muhimdir. Metodik uslub-bu metodning unsurlaridan biri, uning tarkibiy qismidir (ko'rgazma vositalarni, kinofilm fragmentlarini, diafilm, diapositiv ko'rsatish, doskada sxema rasmlardan foydalanish, tajribalarni namoyish qilish, mакtab o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlар vaqtida turli xil faoliyat ko'rsatish va hokazo).

Metod va metodik uslublar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning turli xil tajribalari metod hisoblanadi, lekin o'qituvchi hikoya qilayotgan paytda tajribani namoyish qilinishi metodik uslubdir.

Hikoya davomida o'qituvchining diafilm namoyish qilishi metodik uslubdir.

Metodlarni qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga asosan so'zlar vositasida, zarurat bo'lsa mavzu mazmuniga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan bilim beradi. Bu paytda o'quvchilarning yangi bilim olishlari uchun asosiy manba so'zlar (og'zaki nutq) hisoblanadi.

Og'zaki metodning asosiy turlaridan biri - **hikoyadir**. Hikoya o'qituvchining jonli so'zidir. U kitob o'qish, jism va hodisalarni namoyish qilish, texnika vositalardan foydalanish, badiiy adabiyotlar o'qish va boshqalar bilan uyg'unlashadi. Hikoyada izchilikka qat'iy hikoya qilinadi. Tabiatshunoslik mashg'ulotlarida hikoyaning aytib berish yoki ta'riflash, xarakterlash, tushuntirish, muhokama qilish kabi turlari qo'llaniladi.

Aytib berish - unda konkret fakt, voqeа, jarayon harakatlar haqida gapirib beriladi. Hikoya shohid (sayyoh, yosh tabiatshunos, sayyohatchi, kashfiyotlar ishtirokchisi) nomidan olib boriladi. **Ta'riflash** - borliq jismlar va hodisalarning (foydali qazilmalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, biror tabiiy zona iqlimi xususiyatlarini) izchil bayon qilishda qo'llaniladi. **Xarakterlash** - ta'riflashning bir turidir, u jism yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o'tishdan iborat (tog', daryo va tabiiy zonalar harakteristikasi). **Tushuntirish** - unda yangi tushunchalar, atamalar, ma'nosi ochib beriladi, sabab, oqibat bog'lanishi, u yoki bu narsaning mantiqiy tabiatni (nima uchun tundrada o'zun tun va qisqa kun bo'ladi, nima uchun kun va tun, yil fasllari almashib turadi) ochib beriladi. Undan barcha darslarda foydalaniladi, u muhokama qilish bilan uyg'unlashadi.

Muhokama qilish - bayon qilish asosida bo'lib, unda o'quvchilarni xulosaga olib keluvchi qoida va isbotlarning izchil rivojlanishi bilan bog'liq.

Hikoyaning bu turida o'rganilayotgan hodisani (masalan, tirik mavjudodning o'zgarishiga iqlimning ta'siri, suv, metallning xususiyatlari) tahlil qilish zarurati tug'ilganda foydalaniladi. Hikoyaga quyidagi didaktik talablar qo'yildi: tanlangan o'quv materialini ilmiyligiga, mantiqiy izchillik va isbotlanishiga; o'quvchilar uchun aniq, ravon va tushunarli bo'lishiga; o'qituvchi nutqining tasviriy bo'lishiga javob berishi kerak. 1-2 sinflarda hikoya 5-8 minut, 3-4 sinflarda esa 10-12 daqiqa davom etishi kerak.

Hikoya jarayonida quyidagi didaktik uslublardan foydalanish muhim:

I. Dars mavzusini e'lon qilish yangi mavzuni bayon qilish oldidan muammoli vaziyat vujudga



keltiriladi.

II. Bayon rejasini bildirish.

III. O'quvchilar e'tiborini faollashtiruvchi savollarni bayon davomida berib borish.

IV. O'quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini faollashtiruvchi taqqoslash (masalan, dala, cho'l, dasht, o'rmonlarning o'simlik va hayvonot dunyosini taqqoslash va hokazolar).

V. Yangi materialni bayon qilish davomida ilgari o'rganilgan mavzular turmush bilan, amaliyot bilan (masalan, «Skelet», mavzusini «Mushaklar» mavzusi bilan, jonajon o'lka tabiatini har xil zonalar tabiat mavzusi) bilan aloqasini turmushda, amaliyotda o'rganish.

VI. Hikoyaga maqol, qiziqarli material yoki kitob o'qish epizodini kiritish.

VII. Ko'rgazmalililik (surat, jadval, texnika vositalari)ni qo'llash.

Suhbat. Suhbat savolning hal qilinishida o'quvchilar va o'qituvchilarning ishtirokida xarakterlanadi. Suhbatning maqsadga qaratilganligi o'quvchilar bilimini safarbar qilib, hal qilinishi kerak bo'lgan savollar bilan aniqlanadi. Suhbat natijasida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tegishli xulosa chiqarishlari, xulosani umumlashtirishlari kerak. Suhbat o'quvchilarga notanish bo'lmasligi lozim: hali o'quvchilar o'zlashtirmagan, bilmagan bilimlarni «aniqlash» uchun vaqtini bekorga sarflash yaramaydi. Suhbat yakunlovchi, umumlashtiruvchi va yangi bilimlarni eskilari bilan bog'lovechi darslarda alohida ahamiyatga ega. Suhbatning bosh maqsadi shundaki, bunda o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongida tabiat jismlari hamda hodisalari haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar shakllanadi. Tabiat bilan tanishtirishning birinchi bosqichida suhbat o'qituvchining savollar berishi va chaqirgan o'quvchilarning savollarga javob berishi shaklida kechadi. Keyin suhbat boyib, kengayib boradi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T.: «Cho'lpon» - 2005 y.
2. Grigoryants, A.G. va b. «Tabiatshunoslik» 4-sinf uchun darslik. T.:«Cho'lpon» 2002 y.
3. www.ziyonet.uz



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSALARIDA DIDAKTIK
O'YINLARDAN FOYDALANISH**

Xolmatova Mashhura Rustamovna

Sirdaryo viloyati Bayovut tumani

39 – maktabning boshlang'ich

sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish hususida so'z boradi va misollar yordamida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: matematika, didaktik o'yinlar, zamonaviy ta'lif, ko'rgazmalilik, o'yin qoidasi, boshlang'ich ta'lif.

Har tomonlama barkamol insonni shakllantirish bugungi jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetgazuvchi vorislarimiz, O'zbekiston buyuk kelajagining egalaridir. Barkamol avlod haqida so'z borganda, davlat ta'lif standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish. O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil inson etib tarbiyalashda jon bozlik ko'rsatadigan o'qituvchilarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lif tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lish darkor. Shu sababli zamon talablariga to'liq javob bera oladigan pedagogik texnologiyalarini boshlang'ich sinf matematika darslarida ham joriy qilish ishlari hozirgi davr talabidir.

1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatda o'yin asosi o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Shunday ekan o'qituvch o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti – o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvofiq foydalanish bilan ta'lif jarayonining samaradoligini oshirishga imkoniyat beradi. O'yin bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof – muhit, tabiat hodisalar, manzaralar, buyumlar o'simliklar hayvonlar dunyosini bilan tanishadi.


Boshlang'ich ta'lif davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida o'rinni tutadi. Matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehnini o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga. Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariiga rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik hissi, dunyoqarashlari shakillanib boradi.

Ta'lif jarayonoda didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatlari ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtiradi, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib o'quvchilarni toliqtirmaslik imkonini beradi.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'yinni qoidasi, mazmunini, yakunini nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib anglab shu asosida harakat qiladi. Masalan,



"Rasmga qarab masala tuzing" yoki "Bilag'onga yordam bering" metodi.



© beclever.cc

Matematika darslarida Sinkveyn (5 qatorli she'r) metodi.

Sinkveyn (5 qatorli she'r) metodi o'quvchidan o'rganilgan mavzu yoki ma'lumot haqida o'z fikrini lo'nda va qisqa iboralar yordamida bayon qilishga o'rgatadi.

Sinkveyn (inglizcha cinquain) – 5 qatordan iborat she'rning nomi. Shu bois, “Sinkveyn” metodini o'zbek tilida “5 qatorli she'r” deb ham atash mumkin.

Albatta, matematikadan tuzilgan sinkveyn to'la qonli 5 qatorli she'r bo'lmaydi. Shunday bo'lsada, bunday she'rlarni yozish qoidasi matematika fanidan turli tushunchalarni har tomonlama tavsiflashda qo'l keladi. Sinkveyn 5 qatordan iborat bo'lib, uning qatorlari quyidagi qoida asosida yoziladi.

- 1- Qator: she'r (ya'ni mavzu) mazmunini ifodalovchi bitta o'zak so'z (tushuncha).
- 2- Qator: bu tushunchani xarakterlovchi ikkita sifat (2 ta so'z).
- 3- Qator: bu tushunchaning harakati yoki ta'sirini ifodalovchi 3 ta fe'l.
- 4- Qator: sinkveyn tuzuvchining bu tushunchaga bo'lgan munosabatining bir nechta so'z bilan ifodasi.
- 5- Qator: shu tushuncha bilan bog'liq tasavvur, o'xshatish (bitta so'z bilan)

Misol.

O'quvchilar tomonidan yakuniy nazorat darslarida yozilgan sinkveyn (5 qatorli she'r)lardan namunalar keltiramiz.

- 1.Masala.
- 2.Murakkab, mantli.
- 3.Taqqoslaydi, tahlil qiladi, tasdiqlaydi.
- 4.Masalani yechish uchun uning matematik modelini qurish kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'.Yoldoshev,S.A.Usmonov.Toshkent- 2004-y
2. N.U.Bikboyeva, E.Ya.Yangiboyeva va boshqalar, "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi", T.: "O'qituvchi", 2005;



**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA MATN TUZISHDA REJA TUZA
OLISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

Yusupboyeva Mohira Faxriddin qizi

Xorazm viloyati Xonqa tumani

31-sون umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish hamda o'quvchilarga matn tuzishda reja tuzishni o'rgatish haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: «oddiydan murakkabga», o'quvchilar ertak, hikoya, masal, she'r, maqol

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ertak, hikoya, masal, she'r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o'qish orqali ularda ifodalangan voqeа-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar, o'qigan asarlariga baho berishni o'rganadilar; ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo'llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O'quvchilar asar mazmunini o'zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o'rtasidagi bog'lanishni belgilashga o'rganadilar. Badiiy asar matnini o'qish bilan bolalarda o'zlarini o'rabi turgan muhit, Vatan va uning tabiatini, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo'ladi. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqyealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi.

O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O'quvchilar asar voqyealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismida ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq, qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqyealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergen savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar. Reja tuzish «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmlı reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zları so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ularidan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi. O'quvchilar rasmlı reja tuzishdan logik reja tuzishga o'tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning



1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'limmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalaniib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

O'quvchilarda reja tuzish ko'nikmasi hosil bo'lgach, ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo'ladilar.(3-4- sinf) Har bir qismga reja tuzadilar. Rejani 3-4- sinflarda darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar. Rejada har bir qismi bir turdag'i gaplar shaklida bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
2. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- yil.
3. Umarova M, Xudoyberganov M. Bayonlar to'plami.T."O'qituvchi",1992-yil.
4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiicasi. T., O'qituvchi, 1985- yil.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАСОФАДАН ЎҚИТИШНИНГ УСТУВОРЛИГИ

Абдурахмонова Хуршида Суннатовна
Абу Али ибн Сино номидаги жамоат
саломатлиги техникуми
«Хамширалик иши» фани уқитувчиси
+9989428822417

Интернетнинг ривожланиши кишиларнинг коммуникатив (алоқа) имкониятларини тубдан ўзгартирди. Айниқса глобал тармоқнинг инсон фаолияти доирасига, билим йифиш ва тарқатиш технологияларига, таълим ресурсларининг яратилиши ва фойдаланишларига тасдири жиддий.

Масофавий ўқитиши (distant education) – ўқув жараёнининг мақсади, мазмуни, услублари, ўқитиши воситалари ва интернет технологияси ёрдамида тингловчи ва ўқитувчилар масофадан туриб интерфаол мулоқот килиш жараёнидир.

Масофавий таълимнинг мақсади тингловчиларнинг дастурий билим, тасаввур ва кўнгилмалари асосида мустақил ишлаш самародорлигини ошириш – уларни илмий фикрлашга ўргатиш, ўқув фанига қизиқишини кучайтириш, касбий билимларини чуқурлаштириш, назарий ва амалий машғулот мобайнида фаоллигини кучайтиришдан иборат.

Масофавий таълим – аҳолининг кенг қатлами учун маҳсус информацион таълимга қаратилган бўлиб, масофадан туриб ўқув ахборотларини алмашиб воситалари (йўлдошли, алоқа, телевидение, радио, компьютер) ёрдамида амалга оширилувчи таълим хизматлари мажмуи хисобланади. Масофавий таълимда ўқиши харажатлари тежалади, худудий чекланиш бўлмайди, ўқишининг хилма-хил замонавий техник воситаларидан фойдаланилади, нуфузли таълим муассасаларининг дастурлари ва ўқув-услубий мажмуаларидан фойдаланиш имкониятлари вужудга келади.

Масофавий таълим анъанавий таълим туридан куйидаги характеристерли хусусиятлари билан фарқланади: мослашувчанлик – таълим олувчига ўзига қулай вақт, жой ва тезликда таълим олиш имконияти мавжудлиги. модуллилик – бир-бирига боғлиқ бўлмаган мустақил ўқув курслари тўпламидан - модуллардан индивидуал ёки груп талабига мос ўқув режасини тузиш имконияти мавжудлиги. кенг қамровлилик – қўп сонли талабаларнинг бир вақтнинг ўзида катта ўқув (электрон кутубхона, маълумотлар ва билимлар базаси ва б.) захирадарига мурожаат қила олиши. Бу қўп сонли талабаларнинг коммуникация воситалари ёрдамида ўзаро ва ўқитувчи билан мулоқотда бўлиш имконияти.

Масофавий таълимнинг мақсади куйидагилардан иборат:

асосий таълим ва асосий иш фаолияти билан параллел равишда қўшимча таълим олиш имкониятини яратиб бериш; узлуксиз таълим имкониятларини яратиш таълим сифатини сақлаган ҳолда янги принципиал таълим даражасини таъминлаш.

Ўқитувчининг янги роли – масофавий ўқитиши ўқитувчининг ўқитиши жараёнидаги ролини янада кенгайтиради ва янгилайди. Энди ўқитувчи ўзлаштириш жараёнини мувофиқлаштириши, янгиликлар ва инновацияларга мос равишда бераётган фанини мунтазам мукаммалаштириши, савия ва ижодий фаолиятини янада чуқурлаштириши талаб этилади.

Масофавий ўқитиши услубининг куйидаги афзалликлари мавжуд:

а) ўқитишининг ижодий муҳити. Мавжуд кўпгина услублар асосида ўқитувчи билим беради, ўқувчи эса фақат берилган материални ўқишиди. Таклиф қилинаётган масофавий таълим бериш асосида ўқувчиларнинг ўзлари компьютерлар асосида ахборотлар банкидан керак бўлган маълумотларни қидириб топадилар ва албатта ўзларининг тажрибаларини бошқалар билан электрон тармоқлари асосида алмашадилар.

б) мустақил таълим олишнинг имконияти борлиги. Масофавий услуг асосида таълим олиш - бошланғич, ўрта, университет, сиртқи - кечки ва малака ошириш босқичларини ўз ичига олади. Тайёргарликлари ҳар хил даражада бўлган инспекторлар ўзларининг шахсий дарс жадваллари асосида ишлашлари мумкин ва ўз даражасидаги талабалар билан мулоқотда бўла оладилар.

в) иш жойидаги катта ўзгаришлар. Масофавий услуг асосида таълим бериш тури миллионлаб инсонларга, айниқса ишлаб чиқаришдан ажралмасдан таълим олаётганлар



учун қулай шароит яратиб беради. Бундай услугуб асосида ўқитиш кадрларни тайёрлашда катта роль ўйнамоқда, яъни жуғрофий ва молиявий қийинчиликларсиз ўзининг ишлаб турган ўрнида илм олиши мумкин.

г) ўқитиш ва таълим олишнинг янги ва унумли воситаси. Статистик маълумотлар шуни кўрсатмоқдаки, масофавий услугуб асосида таълим бериш, ишлаб чиқаришдан ажralган ҳолда ўқиш каби унумлидир. Бундан ташқари, масофавий услугуб асосида таълим олиш университет томонидан қўйилган чегарадан ҳам четга чиқиб кетади. Таълим бериш ва бошқариш услубиётига асосланган ҳолда, ўқитувчи аудиторияда ўқитиш шартларидан ҳоли бўлиши керакдир. Масофавий услугуб асосида ўқитишнинг ўқув қоидаларидан келиб чиқсак, ўқувчилар интернет орқали жаҳон бўйлаб саёҳат қилишлари мумкин.

Ҳозирги кунда тўғридан-тўғри интернет тармоғига кириш хизмати масофавий услугуб асосида таълим бериш учун электрон почталар, компьютер конференциялари ва маълумотларнинг электрон базасидан фойдаланилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т. 2019 й
- 2.Таълим ва тиббиёт 2021 №2
- 3.Навоий пресс» газетаси №19 2022й



БЎЛАЖАК ГИГИЕНИСТ-ЭПИДЕМИОЛОГ ТАЛАБАЛАРНИНГ ЧЕТ ТИЛДА КАСБИЙ КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЛИНГВОДИДАКТИК АСОСЛАРИ

М.И.Ахмедова,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори
Фаргона давлат университети

Аннотация

Мақолада ахборот технологиялари асосида гигиенист-эпидемиолог талабаларнинг инглиз тилида касбий коммуникатив компетенциясини шакллантиришнинг лингвотехнологиясини такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ёритилган. Ўтказилган тадқиқотлар инглиз тилидаги мулоқот учун танланган тематика уч иирик гуруҳдан – умумтиббий ахборотни ўз ичига олган ўқиш учун матнлар, иккинчиси тор мутахассисликни акс эттирадиган график ва аудиоматнлар, ва учинчиси кундалик ҳаётий мавзуларда ва тиббий этика доирасида мулоқот қилишга оид матнлардан иборат бўлиши мақсадга мувофиқдир деган илмий хуносани бермоқда.

Таянч сўз ва иборалар: гигиенист-эпидемиолог талабалар, чет тил, коммуникатив компетенция, ахборот технологиялари, метатил, коммуникация мазмуни, коммуникация турлари.

Аннотация

В статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию лингвидидактической технологии формирования профессиональной коммуникативной компетенции студентов гигиенистов-эпидемиологов на английском языке на основе информационных технологий. Проведенные исследования позволили сделать научный вывод о том, что темы, выбираемые для общения на английском языке, состояли из трех больших групп – текстов для чтения, содержащих общемедицинскую информацию, графических и аудиотекстов, отражающих узкую специальность, и текстов, связанных с общением на темы повседневной жизни и в рамках медицинской этики.

Ключевые слова и выражения: студенты гигиенисты-эпидемиологи, иностранный язык, коммуникативная компетенция, информационные технологии, метаязык, содержание коммуникаций, виды коммуникаций.

Annotation

The article describes suggestions and recommendations on improving the linguistic technology of forming the professional communicative competence of hygienist-epidemiologist students in English based on information technologies. The conducted studies have made a scientific conclusion that it is desirable that the topics chosen for communication in English should consist of three large groups - texts for reading containing general medical information, graphic and audio texts reflecting a narrow specialty, and texts related to communication on everyday life topics and within the framework of medical ethics.

Key words: hygienist-epidemiologist students, foreign language, communicative competence, information technologies, metalanguage, content of communication, types of communication.

Бугунги кунда республикамизда нофилологик олий таълим муассасаларида чет тилни ўқитишида интеграллашган ёндашув марказий ўрин эгалламоқда. Хусусан, тиббиёт соҳасига оид чет тилдаги замонавий адабиётларни ўзлаштириш, мазкур соҳа вакиллари касбий компетентлигини оширишнинг асосий манбасига айланмоқда. Шунинг учун «Чет тилларни... бошқа муҳим ва талаб юқори бўлган фанларни чуқурлаштирилган тарзда ўрганиш, таълим ва ўқитиши сифатини баҳолашнинг ҳалқаро стандартларини жорий этиш асосида олий таълим муассасалари фаолиятининг сифати ҳамда самарадорлигини ошириш»¹ устувор вазифалардан бири сифатида белгилаб берилган. Бу эса бўлажак мутахассисларни инглиз тилида мулоқотга тайёрлашнинг лингвидидактик механизмларини, коммуникатив

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. ПФ-4947-сон. 2017 йил 7 февраль. Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.



компетенцияни ривожлантириш методикасини такомиллаштиришни тақозо этмоқда.

Мазкур тадқиқотда ахборот технологиялари асосида гигиенист-эпидемиолог талабаларнинг инглиз тилида касбий коммуникатив компетенциясини шакллантиришнинг лингвотехнологиясини такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ёритилган.

Мамлакатимизда халқаро ҳамкорлик алоқаларининг ҳар томонлама ривожланишида чет тил таълими сифатини ошириш олий таълим муассасаларининг долзарб вазифаси ҳисобланиши билан бирга олий таълимдан кейинги босқичда мутахассис тайёрлаш тизимида ҳам катта аҳамият касб этмоқда. Тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларига хорижий тилларни ўргатиш назарияси ва лингвотехнологиясини ишлаб чиқишида чет тилларни ўрганиш фақат олий таълим тизимидағи зарурый талаблардан бири бўлибгина қолмай, коммуникатив компетенциянинг шаклланнишида ҳам муҳим пойдевор вазифасини ўтайди. Тиббиёт олий таълим муассасаларида фаолият юритаётган педагоглар фикрига кўра, чет тил мутахассислик фанларини ўргатишда восита бўлиб хизмат қилар экан, уни билишнинг аниқ чегарасини белгилаб олиш зарур. Шу билан бирга, таълимнинг бошланғич даврида талабаларга мулокотни ўргатиш муайян даражада устуворликка эга бўлиб, унинг асосида талаба босқичма-босқич мулокотнинг метатилини ўзлаштириб боради. Касбий таълимни ташкил этишида чет тилда олиб бориладиган мулокот жараёни аста-секин мураккаблаштирилиб, тадрижий ривожлантириб борилади. Айни шу босқичда, чет тил амалий машғулотларида кундалик мавзуга оид диалоглар, сўз ва ибораларни ўргатиш билан чегараланиб қолинмоқда. Бундай юзаки ёндашув кейинчалик ўрганилаётган чет тил хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мазкур тилдаги оғзаки нутқ малакаларини ривожлантириш эҳтиёжини келтириб чиқармоқда. Бундай лингводидактик тушунчани чукур таҳлил қилиш, чет тилда оғзаки нутқ малакаларини шакллантириш асосида лингвокультурологик билимларнинг пухта эгалланиши жуда зарурдир.

Тиббиёт соҳасига оид маълумотларни хорижий манбалардан олиш бўлажак мутахассисларда инглиз тилидаги касбий коммуникатив компетенцияни шакллантириша аҳамият касб этади. Бу эса, ўз навбатида, чет тилда касбий коммуникатив компетенциянинг шаклланнишида муҳим ўрин тутади.

Республикамизнинг тиббиёт олий ўқув юртларида бўлгуси гигиенист-эпидемиолог мутахассисларининг чет тилда касбий коммуникатив компетенциясини шакллантириш ҳозирда долзарб вазифага айланди. Бунга Ўзбекистондаги тиббиёт олий ўқув юртлари таълим тизимини ислоҳ қилиш, касбий тайёргарликни янада фаоллаштириш, чет тилда нутқий фаолиятнинг барча турлари (ўқиши, тинглаб тушуниш, гапириш, ёзув)ни ўргатишни, АҚТ ёрдамида чет тилдаги касбий коммуникатив компетенцияни шакллантириш самарадорлигини ошириш натижасида эришиш мумкин.

Аммо талабаларнинг мустақил таълим олишини самарали ривожлантириш таълим тизимида муҳим ўзгартиришлар киритиши, ўқув жараёнига янги ёндашувлар, методлар, лингводидактик технологиялар ва маълумотларни олиб киришни талаб этади. Ушбу вазифани амалга оширишда маълумотларни узатиш тезлиги юқори бўлган, осон ўзгартириладиган, чоп этиш ва тарқатишида катта маблағ талаб этмайдиган маҳсус ўқув материалларини яратишга кўпроқ эътибор қаратилади. Умуман олганда, таълимда, хусусан, чет тил таълими соҳасида ахборот коммуникацион технологиялардан (АҚТ) фойдаланиш бўйича катта тажриба тўпланган бўлса ҳам, лингводидактиканинг концептуал муаммоларидан бири бўлган АҚТдан самарали фойдаланиш шаклларини излаб топиш ва унинг замонавий таълим талабларига мослигини таъминлаш долзарблигича қолмоқда.

Маълумки, таълимнинг якуний мақсадига дастурда кўзда тутилган муайян вазифаларни бажариш орқали эришилади. Аммо психологик ва педагогик шарт-шароитлар етарли бўлмаса, талабаларнинг ушбу курсни ўзлаштиришлари қийин кечади. Бунда асосий муаммолар ўқув фанининг шифокорлар тайёрлаш тизимидағи ўрни ва аҳамиятининг илмий ва назарий жиҳатдан нотўғри талқин қилинганлиги, педагогик фаолиятнинг яхлитлиги ва узлуксизлигини таъминлашга қаратилган ёндашувларнинг ишлаб чиқилмаганлиги, чет тил ўқитувчиларининг бошқа фан ўқитувчилари билан ҳамкорликдаги педагогик фаолиятининг тиббиёт олий таълим муассасалари дастурида акс этмаганлигига кўринади. Шу билан бирга, муаммонинг ижтимоий-ташкилий аспектлари ҳам илмий асосланиши ва ҳал этилиши зарур.

Европа Кенгашининг эксперплари чет тил компетенциясининг бошланғич даражасини шакллантириш учун (Threshold Level) ўқув курсига 350-400 соат ажратилиши кераклигини



таъкидлайдилар. Афсуски, тиббиёт олий таълим муассасаларида инглиз тили ўрганишнинг бошланғич даражаси учун белгиланган ўкув курси касбий мuloқot муаммоларини ҳал эта олмайди. EST – фан ва технологиялар учун инглиз тили (English for science and technology) ёки ESP – маҳсус мақсадларга мўлжалланган (English for Occupational Purposes (EOP), English for Academic Purposes (EAP)) даражасини шакллантириш учун 500-600 соат ажратилиши талаб килинади.

Таҳлил натижаларининг кўрсатишича, ҳозирги кунга қадар университетларнинг таълим жараёнида чет тилларнинг жуда катта педагогик салоҳияти воситаларидан талабаларнинг коммуникатив компетенциясини шакллантиришда етарли даражада фойдаланилмаган.

Ушбу муаммолар бўйича ўрганилган илмий материалларнинг сўнгги маълумотлари таҳлили хорижий тилларни ўқитиш соҳасидаги бу каби муаммолар университетларнинг барча ноғилологик йўналишларига хослигини кўрсатди. Чет тил ўқитиш соҳасида эришилган улкан ютуқларга қарамасдан, бўлғуси мутахассисларнинг коммуникатив компетенцияга эришишида катта муаммолар мавжуд.

Узоқ йиллар бўлажак шифокорларга инглиз тили машғулотларини олиб бориш жараёнида қуидаги илмий методик хulosага келдик. Инглиз тилидаги мuloқot учун танланган тематика уч йирик гурухдан – умумтиббий ахборотни ўз ичига олган ўқиш учун матнлар, иккинчиси тор мутахассисликни акс эттирадиган график ва аудиоматнлар, ва учинчиси кундалик ҳаётий мавзуларда ва тиббий этика доирасида мuloқot қилишга оид матнлардан иборат бўлиши мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. GLOBE study. (Global Leadership and Organizational Behavior Effectiveness). House, Hanges, Javidan, Dorfman, & Gupta, 2004.
2. Hamp-Lyons L. / English for Academic Purposes // in Hinkel, E (ed) Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning. New York: Routledge, 2011. –P. 89–105.
3. Hamp-Lyons L., Hyland, K. Editorial for 4/1: / Some further thoughts on EAP and JEAP // Journal of English for Academic Purposes, 2005. –P. 1–4.



МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ МУХИМ БИР
ВОСИТАСИДИР

Баймуродова Махлиё Хамидуллаевна
Абу Али ибн Сино номидаги жамоат
саломатлиги техникуми
«Хамширалик иши» фани уқитувчиси
+998943738288

Узлуксиз таълим тизимини ривожлантиришнинг муҳим воситаларидан бири масофавий таълим бўлиб, бу айниқса, узлуксиз таълимнинг кейинги босқичларида, олий ва ўрта маҳсус профессионал таълимда, малака ошириш, касбий қайта тайёрланиш ва қўшимча мутахассисликларга эга бўлишда самарали усул ҳисобланади. Масофавий ўқитиш - бу таълим олувчига стандартларга мос келувчи ўқув фанларини эркин танлаш, ўқитувчи билан ўзаро фикр алмашиш (диалог) имконини берувчи, ўқитишнинг замонавий, янги ахборот ва телекоммуникацион технологиялар ва техник воситаларнинг кенг спектрини қўллашга асосланган, таълимнинг универсал инсонпарвар шакли бўлиб, таълим жараёни таълим олувчининг турар жойи ва олиш вақтига боғлиқ эмас ва у таълим муассасасига келмасдан, лекин мунтазам равишда таълим муассасаси ўқитувчиси ёки шу таълим муассасасининг сертификатига эга кишиларнинг (тыюторлар) маслаҳатлари билан таълим олиш имконига эга. Масофавий таълим - масофавий ўқитиш жараёни амалга ошириладиган тизим бўлиб, у таълим олувчининг кейинги ижодий ва меҳнат фаолиятининг асоси бўладиган муайян таълим даражасига (таълим цензига) эришиш ва тасдиқлаш мақсадини амалга оширади. Масофавий таълим – бу масофавий ўқитиш жараёни амалга ошириладиган тизим бўлиб, таълим олувчи томонидан цензига (таълим даражасига) эришиш ва тасдиқлаш учун амалга оширилади. Масофавий таълим турли географик минтақаларда жойлашган ўқитувчи ва ўқувчини боғловчи жараён бўлиб, ўзаро алоқадор маҳсус технологиялар ёрдамида амалга оширилади. Ўзаро алоқаларни амалга оширишда турлича усуллар қўлланилади: почта ва телефакс орқали типографик босма материаллар алмашиш, аудиоконференция, видеоконференция, компьютер орқали виртуал конференция. Ўқув юртидан узокда яшовчилар, қатнаб ўқиш учун шароити бўлмаганлар, малакасини оширишни хоҳловчилар, ногиронлар ва бошқа турли сабабларга кўра бевосита олий ўқув юртларида билим олиш имконига эга бўлмаганлар масофадан туриб билим ва таълим олишга талаб ортиб бориши табиий. Айниқса иш билан банд бўлган катта ёшдаги кишилар, иккинчи мутахассислик бўйича таълим олишни хоҳловчилар учун масофавий таълим жуда қулай воситадир. Дунёнинг барча мамлакатларида масофавий таълимни ривожлантириш долзарб бўлиб бормоқда. АҚШ таълим департаментининг маълумотларига кўра, бу мамлакат олий таълим муассасалари талabalariдан 43% нинг ёши 25 дан кичик, атиги тўртдан бир қисми 18-22 ёшли ёшлардир. Талabalarning қолган қисми оила ва иш ташвишларига кўмилган катта ёшдагиларири. Улар учун университет таълимнинг кундузги шаклларида ўқиш анча муаммо. Масофавий ўқитиш ҳаётнинг ҳозирги замон талбларига жавоб беради, шунинг учун ҳам масофавий ўтиш янги технологиялар бўйича тайёрловчи олий таълим муассасалари сонининг кўпайиши билан сезилмоқда. Буларга очиқ университетлар ёки масофавий ўқитиш университетлари деб аталувчи олий таълим муассасалари киради. Масофавий таълим технологияларининг такомиллашуви ва кенгайиши шу жараёнга бевосита ва билвосита алоқадор ташкилотлар ва тузилмалар доирасини кенгайишига олиб келмоқда. Технологиялар ўқув даргоҳининг бир қисмига айланиб бормоқда, бундан кейин нафақат илмий-тадқиқотлар учун, балки ўқитиш жараёнлари учун ҳам бир хилда муҳимдир. Янги ахборот технологиялари таълим жараёнининг сифати ва даражасига жиддий талблар қўяди. Ахборот технологияларини қўллаш орқали ўқув-тарбиявий жараён сезиларли даражада оптималлаштирилади. Шунингдек, улар масофавий таълимнинг асосий икки тамойили интеграциялашганлик ва технологиялашганликни жорий қилишни таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т. 2019 й
2. Таълим ва тиббиёт 2021 №2
3. Навоий пресс» газетаси №14 2022й



ҲАМШИРАЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Карабекова Насиба Ибодуллаевна

Абу Али ибн Сино номидаги жамоат

саломатлиги техникуми

«Хамширалик иши» фани катта уқитувчиси

+998907305412

Таълим жараёнининг барча йўналишларида бўлганидек, бугунги кунда тиббиёт соҳасида ҳам интерфаол усуллар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологиялари ни ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиши, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда. Бунга асосий сабаб, шу вақтгача анъанавий таълимда укувчиларни фақат тайёр билимларини эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий педагогик технологиялар уларни эгаллаётган билимларини қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишларига, хуносаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатмоқда. Педагогик технология таълим методларидан фарқи шундаки,

укувчиларнинг қизиқувчанлигини ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган. Интерфаол метод-таълим жараёнида тингловчи ҳамда ўқитувчи ўртасидаги фаолликни ошириш орқали укувчилар билимларини ўзлаштиришларини фаоллаштириш, шахсий сифатларини

ривожлантиришга хизмат қилиш билан бир қаторда интерфаол методларни қўллаш дарс самародорлигини оширишга ёрдам беради. Дарсларни самародорлигини ошириш мақсадида куйидаги усуллардан дарс жараёнида қўллаш тавсия этилади.

Мақсади: Дарснинг ҳар бир қисмида мавзуга оид замонавий педагогик технология усулларини қўллаш.

Вазифалари:

- _ Дарснинг танишув қисмини ноанъанавий ўқитиш усуллари билан олиб бориш.
- _ Дарс мавзуларини тушунтириш қисмида интерфаол усулларни қўллаш.
- _ Дарсни мустаҳкамлашда инновацион усуллардан фойдаланиш.

Дарснинг укувчилар билан танишув қисмида қуйидаги усуллардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ

- Иштирокчилар билан танишув!
- Кор уюми усули, Гурухли мунозара усули.

“Иштирокчилар билан танишув усули”. Ушбу усулни укувчилар биринчи келган кундан қўллаш яхши натижা беради.

Қатнашувчилар бир-бирлари билан обдон танишиб олишларига ва жамоада ўзларини қўлай ҳис этишларига кўмаклашиш.

Бунинг учун маълум бир таништирув усуллари мавжуд.

«Кор уюми»

Қатнашувчиларнинг бири ўз исмини биринчи ҳарфига мослаб бирорта сифатни айтади (масалан: Аҳмад – ақлли), кейинги қатнашувчи аввал биринчи қатнашувчининг исмини айтиб, кейин ўзини исмини айтади, учинчи қатнашувчи эса аввал иккита қатнашувчининг исмини айтиб, сўнгра ўз исмини айтади.

Усул ҳусусияти:

Усул машғулотни жонлантирган ҳолда, иштирокчиларни бир-бирлари билан танишишга мажбур қилиб, уларни фаоллаштиради. Кам вақт талаб қилинади. **“Гурух билан танишув” усули**

Бунда кор уюми усулидан фойдаланиб олдин укувчилар ўз исмини айтади, яхши кўрган рангини, кейинги иштирокчи олдин биринчи иштирокчини исми, яхши кўрган рангни айтилиб кейин ўзини исми ва яхши кўрган рангини айтади ва ҳоказо.

Дарс мавзуларини тушунтириш қисмида фойдаланиш мақсадга мувофик бўлади.
“Гурухли мунозара” усули. Ўқитувчининг ахборотли маъruzасидан сўнг аудиторияни янги дискусион гурухларга бўлиб, 5-7 дақиқа давомида фикрлар алмашиш таклиф этилади. Бунда ўқитувчи аниқ муаммони ўртага ташлаб фикрларга йўналиш бериб юбориши мумкин.
мақсади: Тингловчиларнинг ўқитувчи бошчилигидаги ўзаро фаолияти ёрдамида гуруҳдаги



мисолларни ечиш ва тингловчилар фикрига таъсир этиш. **афзалликлари:** Тингловчи дарснинг асосий фигураси бўлади. Тингловчиларнинг муроқотга киришишига ёрдам беради. **камчиликлари:** Тингловчилар томонидан айтилган нотўғри фикр мавзудан четга чиқишига сабаб бўлиши мумкин. Мунозара вақтида асосан 75% тингловчилар фикр юритганликлари сабабли мавзунинг мақсадига эришиш учун кўп вақт сарфланади. **Ўқитувчига маслаҳатлар:** -Гурухга бирор бир фикрни муҳокама учун бермоқчи бўлсангиз, муайян аниқ мавзуни танланг. -Тингловчиларнинг шахсий фикрларини баҳоламанг.

Шундай қилиб ўқув жараёни анъанавий дарс жараёнидан фарқ қилиб, тингловчилар аудиториянинг диққат марказига чиқади. Ўқитувчи ўқув жараёнини қизиқарли, мақсадли ва намунали ўтиши учун турли хил ўринларни эгаллайди. Бу усулларни ўзаро бир-бирига боғлаб қўллаганимизда тингловчиларнинг фаоллиги ва ўзлаштириш сифати ошади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т. 2019 й
2. Таълим ва тиббиёт 2021 №4
3. Саломатлик газетаси №22 2022й



КИТОБХОНЛИК ИНСОННИ МАЪНАВИЙ БОЙИТИБ, УНИ МАЪРИФИЙ КАМОЛОТ САРИ ЕТАКЛАЙДИ

Каримов Жамолиддин Абдухалилович

Абу Али ибн Сино номидаги жамоат

саломатлиги техникуми

«Хамширалик иши» фанлар кафедраси мудири

+998934620236

Китобхонлик инсонни маънавий бойитиб, уни маърифий камолот сари етаклайди. Зеро, инсонни шахс сифатида шаклланиши маънавий тафаккур илдизининг қанчалик чуқур ва мустаҳкамлигига боғлиқ. Бу мустаҳкамлик эса китоб ўқиши, ўқиган китобининг энг муҳим нуқтасини илғаб олишидан иборатdir. Китоб ёш авлодга таъсир этишининг энг қулай воситасидир, у инсон ҳис-туйғуси, ахлоқи, ҳатти-ҳаракати, дунёқарашига таъсир этади, айниқса ўсмирлар ёшида, яъни унинг шаклланиш даврида алоҳида мавқега эга. Бадиий адабиёт турли фанларга доир қизиқарли китоб, лугат, маълумотлар болалар маънавиятини шакллантиришга асос булиб хизмат қилади.

Мавзу мақсади: Ўрта маҳсус, профессионал таълим тизимида ўсаётган ёш авлодни китобга бўлган меҳрини оширишdir.

Бола улгайиб бораркан, уларда физиологик ўзгаришлар юз беради, бу эса болаларнинг ўқиши фаолиятида, атрофдагилар билан муносабатида ҳам акс эта боради. Улар мактабда ўқишини бошлаганларида ота-оналар билан бир қаторда ўқитувчи ҳам таъсир этиши мумкин. Агар ўқитувчи болаларда ишонч руҳини сингдира олса, бу унинг ғалабасидир. Китобхонлик ана шу ишонч туйғусини уйғотувчи муҳим восита. Китобхонлик болаларнинг бошқа ўқув фанларини ўзлаштиришидагина эмас, умуман шахс сифатида шаклланишига, бутун маънавий қиёфасини ўзгаришида ҳам катта аҳамиятга эга. Мактабда ўқитувчи, уйда ота-она китоб ўқиши қўникмасини ҳосил қилиши керак. Бунда оддийдан мураккабликка, яъни боланинг камолот даражасига мос китобларни танлаш кўл келади. Шарқ мутафаккирларнинг тажрибасига кўра, китобхон (бала, ўсмир) қайси мавзуга қизиқса шу мавзудаги китобни тақдим этиш керак. У китоб ўқишига қўникма ҳосил қилгач, аста-секинунга ихтисослашадиган китоблар тақдим килиб борилади. Ота-онанинг бола, ўсмирда китоб ўқиши қўникмасини ҳосил қилишдаги илк вазифаси китоб танлаб беришdir. Унинг савиасига мос бўлган адабиётларни кенг тарғиб қилиш ўсмирларни жамиятнинг муносаби фуқораси, мустақил давлатимизнинг етук, баркамол инсонлари бўлиб етишиши ва маънавиятининг юксаклиги билан жамиятга, оиласига фойда келтиришга олиб келади.

Китоб танлашда ўсмирнинг маънавий даражасига таяниш унинг интеллектуал ўсишига олиб келади. Китоб танлашда боланинг ёш хусусиятининг ҳисобга олиш унинг рационал ўсишига олиб келса, маънавий даражасини ҳисобга олиш эса интеллектуал ривожлантиради. Бу эса рационалликдан кўра кенг қамровли ва самаралидир. Шунинг учун бутун оилада китобхонлик руҳи бўлиши керак. Бунда оилада китобга бўлган муносабат катта роль ўйнайди. Оилада китобхонлик руҳи булса, бу бевосита бола руҳиятига ҳам таъсир қилади.

Маълумки, ўсмирнинг уй ёки мактабдаги ҳаёти ҳар қанча қизиқарли бўлгандан ҳам агар у китоб ўқимаган ва унда китобга меҳр уйғонмаган бўлса, унинг ана шу ёш даври кемтик бўлиб қолади ва бу кемтикликтининг ўрнини ҳеч нарса тўлдира олмайди. Бунинг икки асосий сабаби бор: биринчиси, ўсмирлик даври бола ҳаётида энг бекарор давр бўлиб, уни барқарорлаштириш учун китобхонликка ўргатиш муҳим восита саналади.

Иккинчиси, ўсмирлик даврида унинг ҳис-туйғулари шунчалик кучли бўладики, китобдан олган таъссуротлари унинг кейинчалик ҳаёт тарзини белгилашига, шахс сифатида шаклланишига ёрдам беради. Чунки китоблар уни ҳис этишга, яхшидан ёмонни ажратишга ёрдам беради. Ўсмирнинг келгусида ҳаёт тақдирини ҳал этишга, бир умрлик мақсадини белгилашга ёрдам беради.

Оилада болалар китобхонлигини тарбиялаш муҳим педагогик муоммо бўлиб, шахс маънавиятини шакллантиришда асосий воситалардан ҳисобланади. Хозирги мустақиллик шароитида бунинг моҳияти янада кучайиб, болаларнинг ҳаётдаги воқеа-ходисалар моҳиятини англаб олиши, ижтимоий турмуш хусусиятларини тушуниши, ҳаётда ўзига тўғри йўл топа оладиган акл-заковатли инсон бўлиб етишиши учун доимий ва узлуксиз ташкил



етишни талаб этади. Оила китобхонлиги, одатда, махалла китобхонлиги билан қўшилиб кетган. Натижада оила абадийлигини таъминлайдиган, муқаддас урф-одатларимизни авайлаб асрайдиган ва бу билан келажак авлодлар давомийлигига таъсир кўрсатадиган тарбия воситаси бўлиб хисобланган.

Китоб тавсия этишда асарларнинг болаларга маъқуллиги, ёзувчи ва шоирлар, илмий-оммабоп адабиётларга бўлган кизиқишилари, китобни ақлий, ахлоқий, эстетик жиҳатдан баҳолай олиши, бола танлаган китоб уни фикр-туйғуларини ўзгартира олиши, китобдаги воеа-ходисаларга муносабати хисобга олиниши оиласида китобхонликни самарали ташкил этиш гаровидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Китобхон Т-2021 й
- 2.Таълим ва тиббиёт 2021 №2
- 3.Навоий пресс» газетаси №14 2022й



ЎСПИРИНЛИК ДАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Кодирова Муборак Нажмиддиновна

Абу Али ибн Сино номидаги жамоат

саломатлиги техникуми

«Хамширалик иши» фани уқитувчиси

+998934613243

Болаларни тўғри тарбиялаш, самарали ўқитиш учун бола ривожланишига доир ўзгаришларни, ёш давларига хос хусусиятларини билиш ва хисобга олиш лозим. Чунки уларнинг ўсиши, ривожланиши, руҳий жиҳатдан тараққий этиши турли ёш давлардан турлича бўлади. Ўқитувчилар болалардаги бу ҳолатларни ҳар томонлама билишлари талаб этилади. Ўспиринлик даврига 15-18 ёшлардаги ўқувчилари кирадилар. Бу даврда ўқувчилар жисмонан бақувват, ўқиши тутгатгач, мустақил меҳнат қила оладиган, олий мактабда ўзини синааб кўрадиган имкониятга эга бўлади, маънавий жиҳатдан етукликка эришади. Ўспирин 16 ёшда мамлакат фуқароси ва 18 ёшда эса сайлаш ҳамда сайланиш хуқуқига эга бўлади. Буларнинг барчаси ўспиринга фуқаро сифатида ижтимоий жиҳатдан вояга этишиши, ҳаётда ўз ўрнини топиш, ўз тақдирини ҳал қилиши ва етук шахс сифатида маънавий ўсиши учун жамики шарт-шароитларни яратади. Бу тараққиёт даврининг аниқ мазмуни биринчи навбатда ижтимоий шароитлар билан белгиланади. Ёшларнинг жамиятда тутган ўрни, уларнинг мавқеи, улар эгаллайдиган билимларнинг ҳажми ва бир қатор бошқа факторлар ижтимоий шароитларга боғлиқдир. Илк ўспиринлининг шахси ижтимоий ҳаётда, таълим муассасаси жамоасида, тенгқурлари билан муносабатларда эгаллаган мутлақо янгича мавқеи таъсирида, ўқиши ва турмуш шароитидаги ўзгаришлар таъсирида таркиб топа бошлади. Илк ўспиринлик даврини иккинчи ўтиш даври деб хисоблаш мумкин. Агар биринчи ўтиш даври кўпроқ болаликка яқин бўлса, иккинчи ўтиш даврида бўлган ўспирин кўпроқ ёшлиқ даврига яқиндир ва шу жиҳатидан ўрганилади ҳамда тадқиқ этилади. Илк ўспиринлик даври, асосан, унда мустақил ҳаётнинг бошланиши билан (ўрта мактабни тамомлаб, лицей, коллежларга кириши) ҳарактерланади Ҳаётдаги бу ўзгаришлар илк ўспиринлининг шахсига, уни ўзини англашига таъсир кўрсатади. Ўсмирлардан фарқли ўлароқ илк ўспиринлар катта ҳаётни тасаввур этмайдилар, балки унда иштирок этадилар.

Мазкур даврнинг яна бир хусусияти – меҳнат билан таълим фаолиятининг бир хил аҳамият касб этишидан иборатdir. Мавжуд шарт-шароитлар таъсири остида ўспиринлининг ақлий ва ахлоқий жиҳатдан ўсишда ўзига хос ўзгаришлар, янги хислат ва фазилатлар намоён бўлади. Ҳаётда ўз ўрнини топишга интилиш касб-хунар эгаллаш, ихтисосликни танлаш, истиқбол режасини тузиш, келажакка жиддий муносабатда бўлишни келтириб чиқаради. Бироқ бу давр куч-ғайрат, шижаот, қаҳрамонлик кўрсатишга уриниш, жамоат, жамият ва табиат ходисаларига романтик муносабатда бўлиш билан бошқа ёш давларидан кескин фарқ қиласи. Ўспиринлар (16-18 ёшлар) ўзларининг психологик хусусиятлари билан бошқа ёш даврдаги болалардан кескин фарқ қиласидилар. Жисмоний ҳамда ақлий жиҳатдан вояга етган, камолотта эришган, дунёқарashi, ўз-ўзини бошқариши каби етук инсоний хусусиятлари таркиб топган бўлади. Улар вазмин, мулохазали бўладилар, катта ёшдагиларга хурмат-эхтиром билан қарайдилар. Улар узокни кўзлайдиган, келажак учун қайғурадиган, ота-оналарининг яқин ёрдамчисига айланадилар. Ўқув фаолияти ўспиринлининг асосий фаолияти бўлиб қолаверади, ўқишига нисбатан қизиқиши ўсмирлик ёшига қараганда ўспиринликда бир мунча юқорироқ бўлади. Ўспиринлик ёшида бошдан кечириладиган ҳис-туйғуларнинг бойлиги, хилма-хиллиги билан, ҳаётнинг турли томонларига эмоционал муносабатда бўлиши билан ажralиб туради. Бошдан кечирган ҳис-туйғуларни англаб етиш маҳорати ҳам ривожланади. Ўспиринлик ёшида алоҳида бир ҳис-севги пайдо бўлади. Ўспиринларда севги ҳисси бир қанча ҳолатларга боқлиқ. Биринчидан - жинсий етилиш; иккинчидан - ишонадиган, суюнадиган ва ҳар қандай нозик масалалар бўйича гаплашиши мумкин бўлган дўстга эҳтиёж; учинчидан - бу табиий инсоний эҳтиёж ҳисобланиб, инсон кўпинча ўзини ёлғиз ҳис қилганида кучли эмоционал боғлиқликка интилади. Ўспиринларга шу мавзуда бадиий адабиётлар ўқиши, кинофильмлар, театрлар томоша қилишни тавсия этиш ҳамда турли сухбатлар ўтказиш, уларга ўзларини келгуси ҳаётларини ўзларига мос турмуш ўртоқлар топиш масаласига жиддийроқ ёндошишларига ёрдам беради.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим ошириш йўллари. –Т. 2019 й
2. Таълим ва тиббиёт 2021 №4
3. Таълим ва тараккиёт №3 2020й



**АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЎҚИТИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА КОМПЬЮТЕР ЎРГАТУВЧИ
ТИЗИМЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК АҲАМИЯТИ**

Нуруллаева Сурайё Камол кизи
Абу Али ибн Сино номидаги жамоат
саломатлиги техникуми
«Хамширалик иши» фани уқитувчиси
+998975583557

Хозирги кунда дунёда ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш ва оммалаштириш билан боғлиқ бўлган устиворлик кучайиб бормоқда. Уларнинг инқилобий таъсири давлат тузилмалари ва фуқаролик жамияти институтлари, иқтисодий ва ижтимоий соҳа, илм-фан ва таълим, маданият ва одамларнинг турмуш тарзида кузатилиди. Электрон ҳисоблаш машиналарининг дастлабки авлодлари пайдо бўлиши билан педагогика соҳасида янги бир йўналиш – ўқитишнинг компьютер технологиялари соҳаси пайдо бўлди.

Маълумки, хозирги кунда инсон фаолиятининг турли соҳаларига замонавий ахборот-коммуникация технологияларининг, хусусан, компьютер технологияларининг кириб келиши, деярли барча соҳаларда эришилаётган ютуқларнинг тезлашиши ва сифат жиҳатидан такомиллашишига олиб келмоқда. Бундай соҳалардан бири бу албатта таълим соҳасидир. Таълим соҳасида бу технологиялардан самарали фойдаланишнинг бир омили – бу компьютерли ўргатувчи тизимлардир.

Хозирги вактга келиб эса, ўргатувчи дастурларни яратиш учун жуда катта имкониятлар пайдо бўлди. Замонавий техник воситалар (компьютерлар, уларнинг ќўшимча қурилмалари), уларнинг ранг-баранг дастурий таъминотлари фикримизнинг исботидир.

Ахборот коммуникатция технологиялари дарсларида компьютер ўргатувчи тизимлардан файланиш компьютер сабоқларини самарали ўзлаштиришда хизмат қилади.

Ишнинг мақсади:

Ахборот-коммуникатция технологияларини тиббиёт ходимларига ўқитиш самарадорлигини оширишда компьютер ўргатувчи тизимлардан фойдаланиш.

Ишнинг вазифаси:

Тиббиёт ходимларини шуғуллантирувчи ва назорат қилувчи дастурлар билан танишириш.

- Тиббиёт ходимларига имитатцион ва моделлаштирувчи дастурлар туғрисида тушунча бериш.

Бунда, назарий билимлар олдиндан эгалланган деб ҳисобланади. Бу дастурлар тингловчиларга тасодифий кетма-кетликда савол ва масалалар таклиф қиласи ҳамда берилган масалалар ечимининг тўғри ёки нотўғрилиги сонини ҳисоблади.

Компьютер ўргатувчи дастурларини яратишида турли фан соҳалари, айниқса техника фанларини ўқитиш бўйича бир неча минглаб мутахассис-педагоглар жалб қилинди. Улар томонидан яратилаётган ўргатувчи дастурлар, уларнинг амалий тажрибасига таяниб, маълум фанни компьютер ёрдамида ўқитишга асосланган эди. Ўргатувчи тизимлар, ўқитишнинг бошқа техник воситаларидан қандай хусусиятлари билан фарқланади?:

- ўқув гуруҳ аъзоларининг барчасини алоҳида ёки ўзаро боғланган (локал ва глобал тармоқ) компьютерларида ишлай олиши имкониятининг мавжудлиги;

- юқори даражадаги график, матн, видео ва мультимедиа элементларидан фойдалана олиши имконияти;

- компьютерда қулай ва барча тушунадиган бошқарши тизимининг мавжудлиги;

Компьютерли ўргатувчи дастурлар тузиш бўйича шу кунгача умумий педагогик-психологик мезонлар, яъни қонуният ва принциплар ишлаб чиқилмаган. Шунга қарамасдан, шахсий компьютерларнинг конструктив ва функционал имкониятларидан келиб чиқиб, турли ўргатувчи тизимлар яратилмоқда. Шунингдек, компьютер технологияларини турли фан соҳаларини ўқитишга қўллаш, таълим тизимида янги ахборот технологияларининг асоси сифатида хизмат қилмоқда.

Ўргатувчи тизимлар ёрдамида ўрта тиббиёт ходимларини малакасини ошириш ва ихтисослаштиришда дарс жараёнларини ташкил этиш педагогик-психологик жиҳатдан



эришилиши мумкин бўлган имкониятлари:

- ўқув жараёнини фаоллаштириши;
- ўқитишини индивидуаллаштириши;
- ўқув материалларини кўргазмали-электрон намойиш қилиши;
- бир вақтнинг ўзидаги назарий тушунчаларни амалиёт билан боғлаши;
- катта ҳажмдаги маълумотларни, яъни курсларни қисқа вақт мобайнида ўқитиши имконияти мавжудлиги;
- тингловчиларни таълим олишига бўлган қизиқишини ошириши;

Жавоб шундай: Компьютерни ўқитиши мақсадида фойдаланиш усулларини ишлаб чиқиши, бунинг учун аввало, ўргатувчи дастурларни танлаш ҳамда уни қўллаш шаклларини ташкил қилиш лозим.

Ўрта тиббиёт ходимларини ўқитищда ахборот коммуникация технологиялари дарсларида компьютерли ўргатувчи дастурлардан фойдаланган ҳолда ўқув дарсларини ташкил этиш компьютер саводхонлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т. 2019 й
2. Таълим ва тиббиёт 2021 №2
3. Навоий пресс» газетаси №17 2022й



ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗНЫХ ЭТАПАХ ЗАНЯТИЯ

Булычёва М.Ф.

доцент Кафедры «Изучения языков»
Университета Общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация: Эффективное применение информационных технологий в процессе обучения является важным фактором организации учебного процесса. Использование информационных технологий на разных этапах занятия активизирует психические процессы: восприятие, внимание, память, мышление. Объяснение нового материала с использованием презентаций как источника учебной информации оптимизирует учебный процесс. Таким образом, использование информационных технологий в обучении имеет широкие возможности. Постоянный рост уровня информационно-коммуникационных технологий влечёт за собой увеличение потенциальных возможностей для образовательных целей, которые в свою очередь успешно реализуются и используются на практике.

Ключевые слова: информационные технологии, фактор, презентация, развитие, познавательные способности, восприятие, внимание, память, мышление, практика.

В соответствии с требованиями нового Государственного образовательного стандарта одним из стратегических направлений развития является использование современных информационных технологий, основанных на принципах проблемности, активизации творческого мышления, формировании профессиональной компетентности. Эффективное применение информационных технологий в процессе обучения является важным фактором организации учебного процесса. Целесообразность использования ИКТ в учебном процессе объясняется следующими дидактическими возможностями:

- развитием учебной мотивации обучаемых;
- расширением возможностей для самостоятельной творческой деятельности при исследовании и систематизации учебного материала;
- привитием навыков самоконтроля и самостоятельного исправления собственных ошибок;
- развитием познавательных способностей.

Использование информационных технологий на разных этапах занятия активизирует психические процессы: восприятие, внимание, память, мышление. Объяснение нового материала с использованием презентации, как источника учебной информации и наглядного пособия, оптимизирует учебный процесс. Визуальное представление определений, блок-схем, программ и их исполнений, предъявление подвижных зрительных образов в качестве основы для осознанного овладения научными фактами обеспечивает эффективное усвоение новых знаний и умений. Применение в учебном процессе слайдовых презентаций позволяет:

- интегрировать гипертекст и мультимедиа в единую презентацию, делая изложение учебного материала ярким и убедительным;
- сочетание устного лекционного материала с демонстрацией слайдов позволяет концентрировать визуальное внимание на особо значимых моментах учебного материала;
- сочетать учебный материал (лекции, интерактивные справочные материалы и т.п.) в виде презентационных программ и использовать их для самостоятельной работы;
- интенсифицировать усвоение учебного материала и проводить занятия на качественно новом уровне.

Возможности информационных технологий как инструмента деятельности человека и принципиально нового средства обучения приводят к появлению новых методов, средств, организационных форм контроля и более интенсивному их внедрению в учебный процесс. Контролирующие задания по дисциплинам, реализуемые с помощью информационных технологий могут быть направлены на выявление следующих знаний:

- знаний определений, фундаментальных понятий раздела, темы;
- знаний правил, алгоритмов, законов, формул;
- знаний, связанных с решением задач по теме;



- знаний фактов, основных положений, принципов, практических приложений.

Контролирующие задания по информационным дисциплинам, реализуемые с помощью информационных технологий могут быть различного уровня сложности:

- простые задания на узнавание;
- задания, выполняемые по формуле, алгоритму, правилу, образцу;
- задания проблемного характера.

Использование информационно-коммуникационных технологий в процессе контроля знаний обучаемых, их умений и навыков по дисциплинам даёт следующие преимущества:

- высокую степень наглядности при проведении контроля, что способствует повышению интереса к самому предмету изучения, контролю и оценке;
- автоматизацию проведения, оценивания результатов, подведение итогов контролирующих процедур;
- возможность многократного выполнения контролирующих заданий с целью усвоения знаний.

Применение информационных технологий имеет многогранные возможности и в исследовательской деятельности. На занятиях с обобщением и систематизацией знаний и способов деятельности можно выполнять проектные и творческие работы с использованием Интернет ресурсов. Данный вид работы развивает творческие, исследовательские способности, повышает активность, создаёт условия для самовыражения, позволяет интенсифицировать образовательный процесс, активизировать познавательную деятельность, увеличить эффективность занятия.

Интернет быстро нашёл применение в науке, образовании, связи, средствах массовой информации, включая телевидение, рекламу, торговлю, а также в другие сферы деятельности человека. Первые шаги по внедрению Интернета в систему образования показали его огромные возможности для её развития. Вместе с тем, они же выявили трудности, которые требуется преодолеть для повсеместного применения Сети в образовательных учреждениях. Это значительно большая стоимость организации обучения по сравнению с традиционными технологиями, что связано с необходимостью использования большого количества технических (компьютеры, модемы и т.п.), программных (поддержка технологий обучения) средств, а также с подготовкой дополнительных организационно-методических пособий (специальные инструкции учащимся и преподавателям и др.), новых учебников и учебных пособий и т.п. Следует отметить, что современный этап применения Интернета в образовании, является экспериментальным. Идёт процесс накопления опыта, ищутся пути повышения качества обучения и новых форм использования ИКТ в различных образовательных процессах. Трудности освоения ИКТ в образовании возникают из-за отсутствия не только методической базы их использования в этой сфере, но и методологии разработки ИКТ для образования, что заставляет педагога на практике ориентироваться лишь на личный опыт и умение эмпирически искать пути эффективного применения информационных технологий.

Сложность внедрения современных ИКТ определяется и тем, что традиционная практика их разработки и внедрения основывается на идеологии создания и применения информационных и телекоммуникационных систем в совершенно иных сферах: связи, военно-промышленном комплексе, в авиации и космонавтике. Адаптацию ИКТ к конкретной сфере применения здесь осуществляют специалисты конструкторских бюро и научно-исследовательских институтов, имеющие большой опыт разработки подобной техники и, следовательно, хорошо понимающие назначение систем и условия их эксплуатации. В современном образовании таких специализированных научно-исследовательских структур нет, они только начинают создаваться. По этой причине возникает «разрыв» между возможностями образовательных технологий и их реальным применением. Примером может служить до сих пор существующая практика применения компьютера только как печатающей машинки. Ситуация осложняется и тем, что информационные технологии быстро обновляются: появляются новые, более эффективные и сложные, основанные на искусственном интеллекте, виртуальной реальности, многоязычном интерфейсе, геоинформационных системах и т.п. Выходом из создавшейся противоречивой ситуации может стать интеграция технологий, то есть такое их объединение, которое позволит преподавателю использовать на занятиях и лекциях понятные ему сертифицированные



и адаптированные к процессу обучения технические средства. Интеграция ИКТ и образовательных технологий должна стать новым этапом их более эффективного внедрения в систему образования.

Глобальное внедрение современных технологий во все сферы деятельности, разработка новых коммуникаций и создание высокоавтоматизированной информационной среды стали не только первым шагом к формированию информационного общества, но и началом преобразования традиционной системы образования. Главным фактором, определяющим целесообразность реформирования сложившейся системы образования, является необходимость ответа на основные вызовы, которые сделал человечеству XXI век:

- необходимость перехода общества к новой стратегии развития на основе знаний и высокоэффективных информационно-телекоммуникационных технологий;
- фундаментальная зависимость нашей цивилизации от тех способностей и качеств личности, которые формируются образованием;
- возможность успешного развития общества только с опорой на подлинную образованность и эффективное использование ИКТ;
- теснейшая связь между уровнем благосостояния нации, национальной безопасностью государства и состоянием образования.

Создание и развитие информационного общества (ИО) предполагает широкое применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовании. Повышенное качество обучения, активное и эффективное внедрение современных ИКТ в образование определяется рядом факторов:

- во-первых, существенным образом ускоряет передачу знаний и накопленного технологического и социального опыта человечества не только от поколения к поколению, но и от одного человека другому,
- во-вторых, позволяет человеку успешнее и быстрее адаптироваться к окружающей среде и происходящим социальным изменениям, что даёт каждому человеку возможность получать необходимые знания,
- в-третьих, является важным фактором создания системы образования, отвечающей требованиям ИО и процессу реформирования традиционной системы образования.

Необходимость внедрения ИКТ в процесс обучения отмечена международными экспертами во «Всемирном докладе по коммуникации и информатизации в 1999 – 2000 годы», подготовленном ЮНЕСКО и изданным в конце прошлого тысячелетия агентством «Бизнес-Пресс». В предисловии к докладу Генеральный директор ЮНЕСКО Федерико Майор пишет: «Новые технологии должны способствовать «созданию лучшего мира, в котором каждый человек будет получать пользу от достижений образования, науки, культуры и связи». ИКТ затрагивают все перечисленные сферы, но, пожалуй, наиболее позитивное воздействие они оказывают на образование, так как «открывают возможности совершенно новых методов преподавания и обучения».

Новым этапом глобальной технологизации передовых стран стало появление современных телекоммуникационных сетей и их конвергенция с информационными технологиями, то есть появление ИКТ. Они стали основой для создания инфосферы, так как объединение компьютерных систем и глобальных телекоммуникационных сетей сделало возможным создание и развитие планетарной инфраструктуры, связывающей всё человечество.

На пути движения к ИО и внедрению ИКТ в образование можно выделить три этапа:

- начальный, связанный с индивидуальным использованием компьютеров, в основном, для организации системы образования, её административного управления и хранении информации о процессе управления;
- современный, связанный с созданием компьютерных систем, Интернета и конвергенцией информационных и телекоммуникационных технологий;
- будущий, основанный на интеграции новых ИКТ с образовательными технологиями (ОТ).

ИКТ оказывают активное влияние на процесс обучения и воспитания, так как изменяют схему передачи знаний и методы обучения. Вместе с тем внедрение ИКТ в систему образования не только воздействует на образовательные технологии, но и вводит в процесс образования новые. Они связаны с применением компьютеров и телекоммуникаций, специального оборудования, программных и аппаратных средств, систем обработки информации, а также



с созданием новых средств обучения и хранения знаний, к которым относятся электронные учебники и мультимедиа; электронные библиотеки и архивы, глобальные и локальные образовательные сети; информационно-поисковые и информационно-справочные системы и т.п. Модели ИКТ в настоящее время разрабатываются, а часть из них успешно применяется в системе образования.

Таким образом, использование информационных технологий в обучении имеет широкие возможности. Постоянный рост уровня технологий в компьютерной индустрии влечёт за собой увеличение потенциальных возможностей для образовательных целей, которые в свою очередь реализуются и используются на практике.

Использованная литература:

1. Всемирный доклад ЮНЕСКО по коммуникации и информации, 1999-2000 гг. – М. – 2000. – 168 с.
2. Образование и XXI век: Информационные и коммуникационные технологии. – М.: Наука, 1999. – 191 с.
3. Открытое образование – объективная парадигма XXI века / Под общ. ред. В.П. Тихонова. – М.: МЭСИ, 2000. – 288 с.
4. Романов А.Н., Торопцов В.С., Григорович Д.Б. Технология дистанционного обучения в системе заочного экономического образования. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000. – 303 с.
5. Яковлев А.И., Береговой Г.Т., Василец В.М. и др. Моделирование систем полуавтоматического управления космических кораблей / Под ред. А.И. Яковлева. – М.: Машиностроение, 1986. – 280 с.



ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КЎРГАЗМАЛИ ҚУРОЛЛАР ВА ЎҚИТИШНИНГ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Туропова Манзура Эрдоновна
Навоий Абу Али ибн Сино номидаги Жамоат
саломатлиги техникуми ўқитувчиси
Телефон +99897 2281090

Ўқитиш жараёнида кўргазмали усуллардан фойдаланишнинг муҳимлиги ўқитувчининг ўрганилаётган нарса ва ходисаларни ҳиссий идрок этишга, уларни кузатиб мушоҳада қилишга, ўқувчини ундаш ва уларнинг назарий билимларни амалиётда қўллай олишга ўргата билиши билан изоҳланади. ё Дарсда буюм ва нарсаларнинг асли, тасвири, техник воситалар, тасвирий-кўргазмали қуроллардан фойдаланиб ўтилса, яъни мавзуу шу асосда баён этилса дарс тўғри ташкил қилинади ва самарали якунланади. Ўқув материалининг кўрсатмали бўлиши ёшларни ўзлаштирилган илмий билимларни тажрибада, ишлаб чиқариш амалиётида қўллай олишлари учун зарур бўлган кўнинка ва малакалар билан қуроллантиради. Таълим жараёнида кўргазмалилик усули намойиш этиш, иллюстрация ва экспозиция тариқасида олиб борилади. Ўқитишида намойиш этиш усулидан фойдаланиш материалларнинг характеристига – мазмуни, шакли ва ҳажмига боғлиқдир. Кўргазмали материаллар характери эътиборига кўра икки турда бўлади: 1. Аслича кўрсатилиши мумкин бўлган буюм ва нарсалар: беморлар, ўсимликлар, ҳайвонлар, коллекциялар, асбоб ва ускуналар, моделлар ва ҳ.к.

2. Тасвирий-кўргазмали материаллар: буюм, нарса ва ходисаларнинг тасвирини ифодаловчи материаллар: расм, сурат, диафильм, кинофильм, жўғрофия ва тарих карталари, чизмалар, жадваллар, диаграммалар ва ҳ.к. Тасвирий - кўргазмали материаллар – иллюстрация материаллари деб ҳам аталади. Таълим жараёнида тасвирий – иллюстрация материалларидан фойдаланиш кенг қўлланилади. Таълим воситалари (ҳажмли табиий объектлар, тоғ жинслари, қазилма бойлик намуналари, ўсимликлар, машиналар, деталлар, материаллар, объектлар тасвири, босма ўқитиш воситалари ва ҳоказо) нинг мазмунини ўқувчиларга етказиб бериш катта қулийликлар яратиб, узатилаётган материални ўқувчилар томонидан тез идрок қилишларида замин яратади. Бундан ташқари ўтилган матириал ўқувчлар хотирасида узок вақт сақланишида ёрдам беради. Таълим воситалари қўйидаги турларга бўлинади: Таълим воситалари турлари Ўқитишининг техник воситалари ўқитиши воситалари мазмунини ўқувчиларга етказиб берувчи ўқитиш қуролидир. Ўқитишининг техник воситалари ўқитиши воситалари билан биргаликда ишлатилади. Ўқитиши техник воситалари ўқитиши жараёнида тутган ўрнига қараб информацион, назорат ва дастурлашган техник воситаларига синфланади. Таълим жараёнида кўргазмали қўлланма ва ўқитишининг техник воситаларидан фойдаланиш орқали талабалар томонидан ўзлаштириладиган материал пухта ўзлаштирилишига, узок вақт хотирасида сақланишига, идрок қилиш вақтини қисқартиришга замин яратилади. Бунда ўқитувчи дарсга ажратилган вақтдан унумли фойдаланади, талабалар дикқатини ўқув материалига жалб қиласи ва талабаларда фанга нисбатан ижобий муносабатларини шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- 1.Ишмуҳамедов Р. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. –Т. 2019. Й
2. Таълим ва тибиёт 2020 №2



**“КАСБИЙ БИЛИМЛАРНИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА МУСТАҲКАМЛАШДА УЧ
ДАРАЖАЛИ ТЕСТЛАРНИНГ ЎРНИ”**

Яхшиликова Нилуфар Гайбуллаевна
 Абу Али ибн Сино номидаги жамоат
 саломатлиги техникуми
 «Хамширалик иши» фани уқитувчиси
 +9989728822418

Ўқувчининг ўқув ютуқларини ва имкониятларини билишда тест назоратини ўтказиш чет эл тажрибасини чукур ўрганган ҳолда Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг кенг қўлламда қўлланила бошлади. Бу амалий тадбир эса жаҳон стандартларига жавоб берадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012 йил 28 майдаги ПК-1761 сонли қарори педагогик амалиётнинг янги йўл ва воситаларини татбиқ этилишига сабаб бўлди. Тест назорати доимий ёхуд назорат мақсадидаги текширув ҳисобланади. асосида академик лицей ва қасб-хунар таълимида илгор педагогик услублардан бири-уч даражали тест топширикларини амалда қўллаш таълим берувчи ва таълим олувчиликар ўртасида қайтар алокани йўлга қўйишда ишончли самара бериб келмоқда. Уч даражали тест топшириклари билимларни ўзлаштириш ва ўқув фаолияти йўлларига даражали ёндашув асосида таълим мақсадларини бирдай қилиш демакдир. 1-даражали тест топшириклари ўқувчиликка оид (таниш бўйича ҳаракатланиши) бўлиб, таълим мақсади мавзу бўйича тушунчаларни қайтариш, шакллантириш, таълим олувчидаги ахборотларни билиб олишга қаратилган бўлади. Яна бир афзаллик томони ўқувчининг хотирасини машқ қилдириш, тиклаш жараёни амалга ошади. 2- даражали тест топшириклари тартиблиликка оид (алгоритм) (намуна, ўхшашлик бўйича ҳаракатланиш) бўлиб, бунда мавзу тўғрисида билимларни шакллантириш, назарий билимни ўхшашлик бўйича қўллаш, ҳаракатларни тартиб бўйича бажариш малакаларини шакллантириш (ривожлантириш, мустаҳкамлаш) таълим мақсадининг асосидир. Яъни ўқувчи билимларни онгли ўзлаштиради, уларни мустаҳкам эслаб қолади ва қўллайди. 3-даражали тест топшириклари эса ижодий фикрловчиликка оид (ҳаракатларни танлаш) бўлиб, асосий мақсад ўқувчи фаолияти тартибини ташкил этиш ва шу бўйича мустақил ижодий изланишни олиб бориш ва билимларни излаб топиш, уларни янги ҳолатларда қўллаш малака ва қўнималарини шакллантиришдир. Бундай назоратда таълим олувчилик мустақил тузилган тартиб бўйича мустақил изланиш ва билимларни излаб топишни олиб боради, ўзлаштирилган билимларни излаб топишни олиб боради, ўзлаштирилган билимларни янгидан ҳосил қиласида ва уларни янги ҳолатда қўллайди. Тиббий билимларни ўзлаштиришда уч даражали тест топширикларининг қўлланилиши ва аҳамиятини қўйидаги намуна воситасида кўриб чиқамиз.

Фан. Терапияда хамширалик иши

Ўзлаштириш даражаси	Мақсад	Натижа	Тест
1. Ўқувчилик ка оид, таниш бўйича ҳаракатланиши	1. Сил касаллиги тўғрисида тушунчаларни шакллантириш	1. Сил касаллиги тўғрисида тушунчаларни ўзгартиришсиз тушунтиради	1. Сил касаллиги юқумли касаллик ҳисобланадими? 1)Ха 2)Йўқ
	2. Сил касаллиги юқиши йўллари ҳақида тушунча бериш	Сил касаллигининг одамга юқиши йўлларини ўқувчига тушунтиради.	2. Сил касаллигининг юқиши йўллари тўғри кўрсатилган жавобни белгиланг. А.Ҳазм йўллари орқали В.Ҳаво-томчи, кўкрак сути орқали С. Инъекциялар билан Д. Кон қувиш орқали



2. Тартибли ликка оид, алгоритм, намуна, ухиашлиқ буйича харакатлашии	1. ВК+, ВК-, ВК+-номли тиббий тушунчаларнинг маъноси тўғрисида билимларни шакллантириш	1. ВК+, ВК-, ВК+-номли тиббий тушунчаларнинг аниқ маъносини, белгиларини ва хусусиятларини билади, танийди.	<p>1. ВК+, ВК-, ВК+-номли тиббий белгиларнинг жавобини кўрсатинг.</p> <p>А. Сил микбактериялари балғамда бор-йўқлигини аниқлаш.</p> <p>В. Сил таёқчалари сийдик билан ажралишини текшириш.</p> <p>С. Сил таёқчалари кон билан чиқишини аниқлаш.</p> <p>4. Сил таёқчалари қусук массалари билан чиқишини текшириш</p>
	2. Сил касаллиги турлари тўғрисида тушунчаларни шакллантириш	2. Сил касаллиги турларини санаб ўтади ва сил заарлайдиган аъзоларни ўрганади.	<p>2. Сил заарлайдиган аъзоларни кўрсатинг.</p> <p>А. Ошкозон, жигар, ўт йўллари</p> <p>В. Таносил аъзолари, эндокрин безлар</p> <p>С. Ҳалқум, ҳиқилдок, бронхлар</p> <p>Д. Ўпка, тери, суяқ, мия</p>
3. Ижодий фикрлашга оид, эвристик харакатларни танлаш	1. Сил касаллигига чалинган бемор йўтал пайтида кон тупурганда ҳамшира тактикасини мустақил изланишини олиб бориб, аниқ жавобни излаб топиш, малака ва кўникмаларни шакллантириш	1. Керакли ахборотни топади, танлайди, зарур дорилар ва жиҳозларни тез ёрдам учун қўллайди.	<p>1. 27 ёшли бемор А. сил касалликларига қарши курашиш диспансерига келтирилганига уч кун булди, bemor кечалари терлаб, дармони куришидан шикоят килади. Нонуштадан сўнг муолажа олиш вакти азоб берувчи йўтал тутиб, балғам кон аралаш чиқаётгандиги аниқланди. Беморга шошилинч ёрдам учун дорилар ва жиҳозлар қайси жавобда тўғри кўрсатилган.</p> <p>А. Ханталма, анальгин, новокаин</p> <p>В. Иссик компресс, ампициллин, димедрол</p> <p>С. Музли халтacha, викасол, дицилон.</p> <p>Д. Иситкич, глюкоза, ношпа.</p>

Агар 1-даражали тест топшириғида ўқувчи сил (туберкулёз) касаллиги, хавфи, юқиши ўйлари ҳақидаги тушунчаларини ўзи эшитган ва билганлари асосида хотирлаб, аниқ ва тўғри жавобга ишонч ҳосил қиласа, ўқитувчи уни фикрларини тақдим қилаётган материаллар билан тўлдирилишига тест воситасида ёрдам беради. Бу назорат бошлангич назоратда, бўлим ёки бобни бошлашда дарс машғулотларида жорий назоратларда қўлланилиши мақсадга мувофиқдир. 2- даражада тузилган тест топшириғида эса янги таянч ибора изоҳини билиш учун ўқувчи изланади, сил касаллиги фақат ўпкага тааллуқли деган эски қарашларни рад этади, фикрини исботлаш учун кўникмаларини текширади. Бундай тестлар жорий ва оралиқ назоратларнинг мазмунли ўтишига хизмат қиласи. Берилган намунашаги 3-даражали тест топшириғи вазиятли масала кўринишида бўлиб, ўқувчи бўлажак ҳамширадан ҳам ижодий, ҳам мустақил, ҳам шошилинч тез тиббий ёрдам ҳолатларида вазиятдан тез чиқишига асосланиб тузилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Касбий фанлар методикаси 2013 йиёню №6
2. Л.В.Голиш, Д.М.Файзуллаева Педагогик технологияларни лойиҳалаштири ва режалаштириш. Тошкент 2012йил.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000